جدید


Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil 13-sentyabr
№ 38(38)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

MILLATNI UYG‘OTISH ORZUSI



Shavkat Rahmon degan
bir o‘jar shoir,
bir kuni qaytadan
yaraladimi?
Hayotim ma’nisin juda
ko‘p o‘ylab,
sayladim so‘zlarning
saralarini...

(4-sahifada o‘qing).

BUGUNNING SHE’RI



Sirojiddin SAYYID,
O‘zbekiston xalq shoiri

G‘OLIBLAR QASIDASI

Parij – 2024 Paralimpiya chempionlariga

Ey, yurtimning yot ellarda
g‘olib kelgan dilbandlari,
Parijni ham dast ko‘tarib
olib kelgan dilbandlari.

Men salgina shoirona
mahobatga izn berdim,
Jahon kurash maydoniga
sizday o‘g‘il-qizim berdim.

Neki desam yarashgaydir
bugun sizning sha’ningizga,
Vatan sha’ni turar axir har
jahd-u, har jangingizda.

Farangiston faranglarin
lol aylagan lolalarim,
Ey siz, mehrim tolalarim,
ey siz, mening bolalarim.

Men ham sizning ortingizdan
she’rlar aytib chopay deyman,
Bu dunyoning kam-ko‘stlarin
she’rim bilan yopay deyman.

G‘olib bo‘lmoq bizning tomir
qonimizda an’anadir,
Yoshlik o‘zi kurash erur,
yoshlik o‘zi tantanadir.

Mayli dunyo, oq-u qora
kuchlar ikki taraf bo‘lsin,
Yurt sha’nini ko‘targuvchi
farzandlarga sharaf bo‘lsin!

Uylarimdan uchirmalar
bo‘lib ketgan o‘g‘il-qizim,
Mening yorug‘ yuzim, mening
bu dunyoda qolar izim.

Shu navqiron, sinovlarga
to‘lug‘ shu yosh boshingizda,
Taqdir o‘zi notavon-u
nochor qolmish qoshingizda.

Ey yoronlar, men sevinchning
oliy damlarini ko‘rdim:
Ko‘zlariga yosh qalqigan
davlat rahbarini ko‘rdim.

Qizimdirsiz, bolamdirsiz,
ona taraf, ota taraf,
Millat yukin millat bo‘lib
tortganlarga bo‘lsin sharaf!

Dilbandlari Vatanim deb
or talashsa yot ellarda,
Or-u nomus, Vatan nomi
jo‘sh urgay milyon dillarda.

Men ham endi har satrimni
zarbingizga moslab qo‘shay,
Bor she’rimni poyingizga
poyandozlar qilib to‘shay.

Siznikidir shu jonajon
yangi bog‘-u yangi bo‘ston,
Shu onajon O‘zbekiston,
shu otajon O‘zbekiston!

Qizimdirsiz, bolamdirsiz,
ona taraf, ota taraf,
Millat yukin millat bo‘lib
tortganlarga bo‘lsin sharaf!

3-5.09.2024.

ADABIY DO‘STLIK – ABADIY DO‘STLIK

“JON QOZOQNING OQINLARI DO‘STIMAN, YAQINIMAN...”

Qadimdan qon-qarindosh, urug‘dosh, eldosh, tildosh, dindosh qozoq bovurlarimiz bilan bizning tariximiz, madaniyatimiz, qadriyatlarimiz bir.

Yangi zamonda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Shavkat Mirziyoyev va Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti hurmatli Qasim-Jomart Toqayev janobi oliylarining oqilona siyosati natijasida mamlakatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik munosabatlari bugungi kunda ittifoqchilik darajasiga ko‘tarildi.

Yaqindagina ro‘y bergan, ammo o‘zining teran mohiyatiga ko‘ra, oltin harflar bilan tarixga muhrlangan ulkan voqealarni eslaylik. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-martda qabul qilingan “Buyuk qozoq shoiri va mutafakkiri Abay Qo‘nonboyev ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish to‘g‘risida”gi qaroriga binoan amalga oshirilgan qanchadan qancha ezgu ishlarning guvohi bo‘ldik.

Qarordan kelib chiqadigan vazifalarni ijro etishda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o‘z ijodiy va amaliy faoliyati bilan katta hissa qo‘shdi. Abay hazratlarining “Saylanma” asarlar to‘plami, “O‘zbek-qozoq adabiy aloqalari” ilmiy-ommabop va badiiy-publitsistik maqolalar to‘plami va boshqa ko‘plab kitoblar o‘zbek va qozoq adabiyoti ixlosmandlari qo‘liga tegdi. Bu kitoblar mamlakatimizdagi oliy o‘quv yurtlari, umumta’lim maktablariga beg‘araz hadya etildi. Talaba-yoshlar va o‘quvchi bolalar o‘rtasida “Abay asarlari bilimdoni” insholar tanlovi o‘tkazildi. Abay Ibrohim tug‘ilgan 10-avgust sanasini O‘zbekistonda keng nishonlash an’anaga aylandi. Abay ko‘chasi poytaxtimizning qoq markazidan o‘tadigan Alisher Navoiy nomi bilan ataladigan shohko‘chaga tutashgan. Bunda naqadar chuqur ramziy ma’no borligini ikki bovurdosh xalq juda yaxshi anglaydi.

Vatanimiz Mustaqilligining 33 yilligi bayrami arafasida Qozog‘iston poytaxtida o‘zbek xalqining ulug‘ siymosi, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy haykali o‘rnatilganini alohida ta’kidlash o‘rinli.

(Davomi 2-sahifada).

MILLAT FIDOYILARI

MUSAXO‘JA HAKIMOV – “KATTA TERROR” QURBONI



Musaxo‘ja Hakimov 1898-yili Buxoroda qozi oilasida tavallud topgan. Millati o‘zbek, dastlabki ta’limni o‘z davrining yirik ulamosi bo‘lgan otasidan olgan. Jadidlik maktabini tamomlab, Buxorodagi madrasaga o‘qishga qabul qilingan.

Qahramonimiz 1920-yil sentyabrda amirlik tugatilib, Buxoro xalq sovet respublikasi (BXSR) tashkil topganidan so‘ng yangi hukumat tomonidan Buxoro tumani qozisi lavozimiga tayinlangan. 1922-yil 18-avgustda 3-Butunbuxoro sovetlari qurultoyi qarori bilan BXSR adliya nozirining birinchi o‘rinbosari lavozimida ish boshlagan.

O‘sha davrga oid manbalarda keltirilishicha, respublikada ayrim hukumat organlarining suiiste’molliklari ortishi yuz bergan. Buxoro xalq sovet respublikasi Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining 1922-yil 21-noyabrdagi maxsus qarori bilan BXSR Adliya nozirligi tarkibida yangi bo‘lim – “Muddaoyi umumiya”, ya’ni prokuratura bo‘limi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Adliya noziri Abdurahim Yusufzoda bir vaqtning o‘zida bosh prokuror lavozimiga, uning o‘rinbosari Musaxo‘ja Hakimov esa prokuratura bo‘limining boshlig‘i etib tayinlangan.

BXSR hukumati tomonidan prokuratura bo‘limiga barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar o‘z faoliyatini qonun doirasida amalga oshirishini, jinoyat ishi doirasida tergov organlari va ichki ishlar nozirligi faoliyatini kuzatib borishni, jazoni o‘tash muassasalari, hibsxonalarda belgilangan qonun-qoidalarga amal qilinishini nazorat qilish topshirilgan. Shuningdek, Ichki ishlar nozirligi bilan hamkorlikda mahbuslarga nisbatan jazo choralarini ko‘rish, amnistiya qoidalarini tayyorlash, uning to‘g‘ri qo‘llanilishini ta’minlash, harbiy tribunallar faoliyatidagi prokuratura nazorati vazifasini amalga oshirish, Butunbuxoro Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi, Xalq Nozirlar Kengashi, Mehnat qo‘mitasi va Adliya nozirligining qarorlari asosida tergov ishlarini olib borish vazifasi yuklatilgan.

(Davomi 7-sahifada).

KECHA VA BUGUN

BO‘LAR EKAN-KU!



...Kuni kecha ertalab katta kelinim gap boshlab qoldi: “Elatdagi fermer paxta terimiga tushibdi. Har kilo paxtaga bir yarim ming so‘mdan berarmish. Men ham borsam devdim...”

O‘tgan yili shu kelinim mavsumda – yigirma besh kun ichida uch tonnadan ortiq paxta tergan. Olgan terim puliga yangi ko‘chgan uylariga zamonaviy muzlatgich xarid qilgandi.

(Davomi 3-sahifada).

DOLZARB MUAMMO

ISROF va KAMBAG‘ALLIK

Kuni kecha muhtaram Prezidentimiz mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish ishlarini keyingi sifat bosqichiga olib chiqish masalalari muhokamasi bo‘yicha videoselektor o‘tkazdi. Ma’lumki, bu yo‘nalishdagi islohotlar 2020-yilda boshlanib, o‘tgan yil yakunlariga ko‘ra, kambag‘allik darajasi 11 foizga tushgan. Inson qadri tamoyilini bosh shior qilib olgan jamiyatimiz uchun bu ko‘rsatkich qoniqarli emas. Davlatimiz rahbari keyingi yillar uchun “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi tayyorlanayotganini ma’lum qildi. *“Bundan buyon kambag‘allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylanadi! Hukumatdan tortib, tuman tashkilotigacha barcha bo‘g‘indagi rahbarlarning kundalik ishi oilalarni kambag‘allikdan olib chiqish bo‘lishi kerak”,* deb ta’kidladi Prezident.

Kambag‘allikni qisqartirish kun tartibiga chiqqan ayni kunlarda jadid bobolarimiz taraqqiyotning eng katta dushmani, deb e’tirof etgan isrof masalasi ham diqqatimizdan chetda qolmasligi lozim. Bunda taom va noz-ne’mat isrofigina emas, balki taqdim etilayotgan vaqt, imkon va imtiyozlar isrofiga ham chek qo‘yish kerakligini barcha birday anglamog‘i darkor.

ISROF NIMA O‘ZI?

“Isrof” arabcha “sarafa”, ya’ni “ishlatmoq”, “sarf qilmoq” o‘zagidan yasalgan. U “hisobsiz tarzda ishlatish”, “haddan oshish” ma’nolarini anglatadi. Isrofga yo‘l qo‘ygan odam berilgan ne’matlarni o‘rnida sarflamagan yoki ehtiyojdan tashqari ishlatgan bo‘ladi. Xo‘sh, biz ne’matlarni istifoda etishda isrofga yo‘l qo‘ymayapmizmi?

CHIQINDIXONADAGI NON

Poytaxtimizning deyarli har bir mahallasida chiqindixona mavjud. Xayriyat, xalqimiz nonni alohida paketga solib tashlaydi. Chiqindixona xodimlari yozda uni oftobga yoyib, quritishadi, keyin uyida jonzot boqayotganlarga sotishadi.

(Davomi 5-sahifada).

Boshlanishi 1-sahifada.

Ushbu qutlug‘ tarixiy voqeaga bag‘ishlangan tantanali marosimda O‘zbekiston va Qozog‘iston Prezidentlari ishtirok etib, nutq so‘zladi. Buyuk bobokalonimiz hazrat Navoiyning muhtasham “Xamsa” dostonlar majmuasi qozoq tiliga tarjima qilinib, unga hurmatli Prezident Qasim-Jomart Toqayevning so‘zboshi yozganida ham qozoq xalqining o‘zbek xalqiga nisbatan katta ehtiromini chin yurakdan his etdik.

Mamlakatimizda Vatanimiz mustaqilligi bayrami shukuhi kezib yurgan kunlarda ijtimoiy-ma’naviy hayotimizda, o‘zbek-qozoq adabiy aloqalarini yanada mustahkamlashga qaratilgan quvonchli bir voqea ro‘y berdi.

“JON QOZOQNING OQINLARI DO‘STIMAN, YAQINIMAN...”



Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev farmoniga binoan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid o‘zbek-qozoq adabiy aloqalari rivojiga qo‘shgan xizmatlari uchun Qozog‘iston Respublikasining “Hurmat” ordeni bilan mukofotlandi.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida yuksak darajadagi mazkur mukofot Qozog‘iston Respublikasining O‘zbekistondagi Favqulodda va Muxtor Elchisi Beybut Atamkulov tomonidan topshirilayotganda Sirojiddin Sayyid o‘z minnatdorligini shunday izhor etdi:

– Davlatimiz rahbari muhtaram Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan milliy adabiyotimizning ravnaq topishi, uning xalqaro miqyosda keng targ‘ib etilishiga yuksak e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatilayotir. Qardosh-qarindosh qozoq xalqining menga ko‘rsatgan ayni ehtiromini o‘zbek adabiyotiga, qolaversa, hamisha do‘st-u qadrdon bo‘lgan ulug‘ ustozlarimiz xotirasiga yuksak hurmatning timsoli deb bilaman.

Prezidentimiz tashabbusi bilan “Turkiy adabiyot durdonalari” nomli yuz jildlik kitoblar majmuasi Sirojiddin Sayyid boshchiligidagi tahrir hay’ati tomonidan qizg‘in muhokama qilindi. Qisqa vaqtda juda katta ijodiy ish muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Turkiy tilli davlatlar xalqlari yozma adabiyotining eng yuksak namunalarini jamlagan ushbu kitoblar majmuasining o‘n jildi qozoq adabiyotiga bag‘ishlangan.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Adabiy do‘stlik – abadiy do‘stlik” shiori ostida xalqaro adabiy aloqalar yanada rivojlandi. Bordi-keldi kuchaydi. Goh Toshkentda yoki Samarqandda, goh Ostonada yoki Olmaotada tashkil etilgan adabiy tadbirlarda o‘zbek va qozoq ijodkorlari, shoirlari, ayniqsa, yoshlar faol ishtirok etdi. Iste’dodli yosh shoirlarimizning qozoq tilida “Jүz eleң”, qozoq yosh oqinlarining o‘zbek tilida “Yuz she’r” kitoblari nashr etilganligi ham ma’naviy hayotimizda katta voqea bo‘ldi. Bunday quvonchli xabarlar, voqea va uchrashuvlarga ko‘plab misol keltirish mumkin.

Qozoq birodarlarimiz bilan diydorlashuvga otlanar ekan Sirojiddin aka ulug‘ shoirimiz G‘afur G‘ulomning “Qozoq elining ulug‘ to‘yi” nomli she’ridagi “Jon qozoqning oqinlari do‘stiman, yaqiniman” degan misralarini doim yoddan takrorlab yurishini ko‘p kuzatganman.

O‘zbek-qozoq adabiyoti o‘rtasida bamisli oltin ko‘prik vazifasini o‘tagan, umri davomida shu ikki xalq hamjihatligi, do‘stligining mustahkam bo‘lishi uchun astoydil mehnat qilgan ijodkorlarimizdan yana biri O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, ustoz adib va tarjimon Nosir Fozilov edi. Qozoq tug‘ishganlar Nosir Fozilovga “Nosir og‘ay” deb, alohida hurmat ko‘rsatishardi. Qozoq adabiyoti bo‘yicha ustoz bilmagan narsa yo‘q edi. Oqsoqol do‘stlari va ukalarini xuddi o‘zining uyiga olib borayotgandek Qozog‘istonga boshlab boraverardi. Bir gal Nosir Fozilov ijodiy safarda Sirojiddin Sayyidni o‘ziga hamroh qilib oladi.

– Tadbir bo‘layotgan zalga kirib borishimiz bilan Nosir og‘a qozog‘istonliklar qurshovida qolib ketdi. Hamma uni quchoqlab o‘paveradi... – degan edi Sirojiddin aka o‘sha safarni eslab.

Nosir Fozilov hazilkash odam edi. Bovurlarining unga bo‘lgan o‘ta qaynoq va samimiy mehr-muhabbatidan xijolat bo‘lganidan hazil qilib, hamrohini kuldiradi:

– Sirojiddin, mana ko‘rdingmi, hamma meni o‘pyapti, xuddi qari tannoz ayolga o‘xshab qoldim...

Belgilangan tadbirlar tugagach, ikkalasi Olmaota shahri bo‘ylab sayrga chiqishadi. Ko‘p qavatli uy oldidagi bolalar maydonchasida o‘g‘ilchasini o‘ynatib o‘tirgan ayolga duch kelishadi. Nosir og‘a qiziqib, qosh-u ko‘zlari qop-qoragina o‘g‘il bolaning ismini bilgisi keladi. Sirojiddin aka ustozga: “Shu bolaning ismi o‘zbekcha bo‘lsa keragov” deya ko‘ngliga kelgan gapni aytadi. Oqsoqol adib bu gapga ishonqiramay ayoldan:

– Bu jigitning ismi nima? – deb so‘raydi.

– Alisher! – deb javob beradi ayol.

Nosir Fozilov Sirojiddin Sayyidning topag‘onligiga tan berib, kulib yuboradi. Oqsoqol kichik Alisher o‘g‘lonni duo qiladi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘tasidagi hamkorlik munosabatlarining bugungidek ittifoqchilik darajasiga ko‘tarilishi Abdulla Oripov va Nosir Fozilov kabi ustozlarimizning orzu-armoni edi. Sirojiddin akaning mukofot topshirilgan paytda aytgan dil izhorlarida ustozlarimizning ana o‘sha orzu-armonlari ushalganiga teran ramziy ishora bor.

Qozog‘iston va O‘zbekiston o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va ishonch, yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik va qondoshligimiz abadiy bo‘lsin!

Rustam MUSURMON,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Xalqaro aloqalar va badiiy tarjima
bo‘limi boshlig‘i

BUGUNNING GAPI

YER QA’RIDAGI XAZINA





Rahmatjon OXUNJONOV,
“Mehnat shuhrati” ordeni sohibi,
geologiya-mineralogiya fanlari doktori

– Ma’lumki, eng qadimiy geologik kuzatuvlar Pifagor, Aristotel asarlarida uchraydi. Yurtimizdan yetishib chiqqan Beruniy, Ibn Sino singari ulug‘ allomalar ham qator minerallar va ma’danlarga ilmiy ta’rif berishgan. Ayting-chi, bugun o‘zbek geologiyasining dunyo ilm-fanidagi mavqeyi qay darajada, qanday xalqaro aloqalar o‘rnatilgan?

– O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tizimidagi geologiya va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan institutlar doimo rivojlanishda bo‘lgan. Yurtimizdagi barcha yirik konlarda institutimiz olimlari ish olib borgan. Geologiya va fizika institutida 1960-yillarda asosiy yo‘nalish bo‘lmish petrologiyada qazilma boyliklarning hosil bo‘lishi va magmatizm bilan bog‘liqligi borasida g‘oyalar mavjud edi. Atoqli geolog olim Habib Abdullayev o‘sha g‘oyalarni birinchilardan bo‘lib ko‘targan va juda ko‘p yutuqlarga erishgan. U kishining ayni shu mavzuga oid nazariyalari jamlangan kitoblar dastlab ingliz va xitoy tilida chop etilib, keyinchalik boshqa tillarga ham tarjima qilingan. Olimning ilmiy izlanishlariga asoslangan holda, Xitoyda ko‘pgina konlar kashf qilingan. Bundan tashqari, Habib Abdullayevning g‘oyasi ko‘plab yangi izlanishlarga yo‘l ochgani fanga ma’lum. Ustozimizning bugungi yosh olimlarga o‘rnak bo‘ladigan fazilati – birinchi galda o‘ziga va atrofdagilarga talabchanligi edi, deb hisoblayman. U kishi birorta ilmiy asarini jamoatchilik nazaridan o‘tkazmasdan chop ettirmas edi. Har bir mutaxassisning e’tirozi va tanqidiy fikrlarini og‘rinmay qabul qilar va risolasiga tuzatishlar kiritishga harakat qilardi.

– Konlarni o‘zlashtirish natijasida qazilmalarning o‘rni bo‘shab qoladi. Bu hol kelgusida vulqonlar otilishi, yer qatlamlarining buzilishi yoki zilzilalar yuz berishiga sabab bo‘lmaydimi?

– Qazib olingan moddaning tarkibi o‘sha hududdagi geologik sharoitda unchalik ko‘p bo‘lmaydi. Havoga ko‘tarilgan changlar va zaharli moddalar ekologiyaga zarar yetkazishi mumkin, lekin konlarning o‘zlashtirilishi yer qobig‘ining tuzilishi, yerning siljishi, qulashiga ta’sir qilmaydi.

Ma’danlarni qidirish jarayonida birinchi navbatda qaysi qazilma boyliklarining nechog‘li foydali ekanligini bilish juda muhim. Geologik va biokimyoviy yo‘nalishlar – yaxshi rivojlangan sohalar sanaladi. Har bitta yirik qazib olinayotgan konlarni avval tekshirib, undan qo‘shimcha yana qanday elementlar olinishi mumkinligini aniqlaymiz va bu borada o‘z takliflarimizni beramiz. Shu asosda mamlakatimizdagi Olmaliq va Xonjiza konlarida rivojlangan texnologiyalar yordamida qo‘shimcha elementlar ham olinmoqda.

– Foydali qazilmalarning hosil bo‘lishi asrlar davomida yuz beradimi yoki sun’iy ravishda jarayonni tezlatish ham mumkinmi?

– Sun’iy tarzda jarayonni tezlatish amaliyoti fan tarixida yangilik emas. Lekin bu seleksiya qimmatga tushadigan amaliyot hisoblanadi. Yaxshisi, mavjud konlarni tadqiq qilib, tejamkor usulda qimmatbaho rudalarni olgan ma’qulroq. O‘zimizdagi mavjud konlarni oladigan bo‘lsak, ularning eng “yoshi” 25–30 million yil avval hosil bo‘lgan. Ba’zilar muayyan bir konda faqatgina bir turdagi ma’dan yig‘indisi bo‘ladi, deb o‘ylaydi. Aslida unday emas. Masalan, tabiat yaratgan ganjina bag‘rida dastlab oltin, keyin boshqa elementlar paydo bo‘lishi ham mumkin. Bir modda yuz ming yil avval hosil bo‘lgan bo‘lsa, keyingisi balki ellik ming yil o‘tgandan keyin qo‘shilgan bo‘lishi ehtimol. Umuman olganda, aksariyat konlardagi ma’danlar million yillar davomida tabiiy ravishda shakllanadi. Nega ular har xil vaqtda hosil bo‘lgani, bir konda turli metallar yig‘ilib qolgani sababini aniqlash esa olimlarning vazifasidir. Chunki olingan ilmiy xulosalarga asoslanib, yangidan yangi konlarni kashf etish mumkin.

– Foydali qazilmalar paydo bo‘lishiga qanday omillar ta’sir qiladi?

– Asosiy omil yer qobig‘ining tubida yoki bo‘lmasa “qozon”ning ichida yuz berayotgan magmatik jarayonlar hisoblanadi. Mana shu jarayonlar natijasida ona zamin qa’rida hosil bo‘lgan foydali unsurlar yer qobig‘ini va qatlamlarini eritib yuzaga chiqadi. O‘ta past darajali sovuq, energiya va unsurlardan foydali qazilmalar hosil bo‘ladi. Har bir qatlamning o‘z ixtisoslashuv jarayoni mavjud.

– Tabiiy resurslarga bo‘lgan talab kundan kunga oshib bormoqda. Ayting-chi, bugun Habib Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika institutining vazifalari nimalardan iborat?

– Ochig‘ini aytish kerak, ilgari geologiya sanoati o‘z holiga tashlab qo‘yilgan, ilmiy tadqiqotlar uchun zarur bo‘lgan zamonaviy texnologiya uskunalari yetishmas, hatto yurtimiz hududida ilmiy ekspeditsiya uyushtirishga ham moddiy imkoniyatlar yo‘q edi. Bir so‘z bilan aytganda, bizga o‘gay ko‘z bilan qaralar, natija talab qilinardi-yu, lekin imkon yaratib berilmasdi. Shukurki, keyingi yillarda hurmatli Prezidentimiz geologiya sohasini yuksaltirishga ham juda katta e’tibor qaratmoqdalar. Buni soha rivoji uchun ajratilayotgan mablag‘lar qiymatidan ham anglash mumkin. Ayniqsa, mavjud infratuzilmani yaxshilash, bu boradagi faoliyatni samarali tashkil etish borasida qabul qilinayotgan qator normativ hujjatlar ishimizni tizimli olib borish imkonini yaratmoqda. Jumladan, shu yil 24-may kuni “Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilindi. Qolaversa, 9-iyul kuni davlatimiz rahbari geologiya sohasidagi ishlar va investitsiya loyihalari ijrosi bilan yaqindan tanishdi. Ushbu taqdimotda sohada amalga oshirilishi zarur bo‘lgan qator vazifalar belgilab berildi.

Hozir bizning asosiy vazifamiz – mamlakatimiz hududidagi yer qobig‘i geologik tuzilishi va tarkibini o‘rganish bo‘yicha chuqur fundamental tadqiqotlar olib borish, yer qa’ri tuzilishini kompleks o‘rganish va shu asosda uch o‘lchovli geologik-geofizik modellarni tuzishdan iborat. Bundan tashqari, biz viloyatlarning resurs salohiyatini baholash hamda geokimyoviy, geofizik va mineralogik tadqiqotlarning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish, geologik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish, shuningdek, foydali qazilmalarni qayta ishlashda ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etishni ham maqsad qilganmiz.

Institutimizda foydali qazilma konlarini geologik tahlil etish, prognoz qilish va izlash usullarini takomillashtirishga, geologik va geofizik tadqiqotlar sohasida ilg‘or xorijiy texnologiyalarni aprobatsiya qilish va amaliyotda joriy etishga qaratilgan amaliy tadqiqotlar qilinmoqda.

Shuni ham aytib o‘tishim kerakki, geologiya va geofizika sohasida chet el ilmiy muassasalari va markazlari bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish, ilmiy konferensiyalar, seminarlar, qo‘shma tadqiqotlar, loyihalarni yo‘lga qo‘yish, xodimlarning malaka oshirishi va o‘qishini tashkil qilish bo‘yicha ham qator ishlar olib borilmoqda.

– Bilishimizcha, yaqinda “O‘zbekiston magmatik tog‘ jinslarining atlasi” nashr qilindi. Ana shu atlasning ahamiyati haqida ham to‘xtalsangiz.

– Mazkur atlas “Petrologiya laboratoriyasi” ilmiy xodimlari tomonidan chop etildi. Loyiha doirasida yetakchi turdagi magmatik tog‘ jinslarining petrografik xususiyatlari, tarkibi, hosil bo‘lish sharoitlari o‘rganilgan.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, ushbu atlas O‘zbekistonda birinchi marta uch tilda nashr etildi. Bu esa olib borayotgan ishlarimizning xalqaro miqyosdagi o‘rnini kengaytiradi.

“Mineralogiya laboratoriyasi” xodimlari tomonidan amalga oshirilayotgan yana bir loyiha “Magmatik, postmagmatik va metasomatik hosilalarda asosiy va yo‘ldosh ma’danli elementlarning tarqalish qonuniyatlari va uchrash shakllarini aniqlash hamda chuqurlik sari bashoratlash-qidiruv modelini yaratish (Nurota hududi endogen ma’danlashuv misolida)” deya nomlanadi. Olimlarimizning maqsadi Nurota tumani hududida ma’danlarning shakllanish qonuniyatlari va foydali komponentlarning uchrash shakllari, tog‘ jinslari va ma’danlardagi asosiy hamda yo‘ldosh elementlarning tarqalish xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Institutimizda shu kabi 30 ga yaqin ilmiy-amaliy, fundamental loyihalar amalga oshirilmoqda. Kritik metallarni tadqiq qilish bo‘yicha ham yangi loyihalarni rejalashtiryapmiz. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, olib borilayotgan geologik qidiruv va baholash ishlari yurtimiz tabiiy resurslar zaxiralarini ko‘paytirish, mavjudlarini esa chuqurroq o‘rganishga qaratilgan.

– Respublikamiz hududida ko‘plab foydali qazilmalar mavjud ekani haqida qayta-qayta gapiramiz. Ammo nega ayrim turdagi xomashyolar hanuzgacha chetdan import qilinmoqda?

– Haqiqatan ham, jannatmonand yurtimizda Mendeleyev jadvalidagi barcha elementlar mavjud. Lekin bu yoppasiga qazib olish ishlarini boshlash kerakligini anglatmaydi. Garchi ehtiyojimiz bo‘lsa-da. Sababi, konni ishga tushirish bu – katta jarayon bo‘lib, chuqur izlanishlar, murakkab hisob-kitoblarni o‘z ichiga oladi. Bugunga qadar respublikamizdagi mavjud ma’danli maydonlarda dastlabki o‘rganish ishlari olib borilgan va tegishli ma’lumotlar shakllantirilgan. Zamonaviy texnologiyalarning keng qo‘llanilishi, xorijiy investorlar yordamida yangi asbob-uskunalarni keltirish, ularni qazib olishda tannarxni tushirishga olib keladi. Natijada 20–30 yil avval sanoat talabiga javob bermagan, qazib olish va qayta ishlash qimmatga tushgan konlar sekinlik bilan ishga tushirilmoqda. Misol sifatida Toshkent viloyatining Parkent tumanida joylashgan Surenota temir koni bundan bir necha yillar oldin to‘liq o‘rganilgan edi. O‘shanda zaxirasi nisbatan kamligi uchun uni kon sifatida o‘zlashtirish o‘zini oqlamaydi degan xulosaga kelingan. Ayni kunlarda xitoylik investorlar bilan hamkorlikda yangi texnologiyalar asosida mazkur konda ruda qazib olish ishlari boshlandi. Natijada qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratilmoqda.

Bizda Surenota kabi zaxirasi kichik, noqulay geografik joylashuvga ega konlar juda ko‘p. Ularni ishga tushirish uchun zamonaviy usullar yordamida qayta o‘rganish, qo‘shimcha komponentlarni aniqlash, yondosh hududlarda geologik izlanishlar olib borish zarur. Institutimiz xodimlari ilmiy tadqiqotlar asosida ma’dan maydonlarining hosil bo‘lish sharoiti, tarqalish xususiyatlari hamda geologiyasini batafsil o‘rganishadi. Ilg‘or texnologiyalar tahlili natijasida olingan ma’lumotlar asosida har bir konning mahsuldorligi aniqlanadi.

– Ayni damda institutda qanday loyihalar amalga oshirilmoqda va dunyo miqyosida talab yuqori bo‘lgan qaysi elementlar bo‘yicha geologik qidiruv ishlari olib borilmoqda?

– Har bir laboratoriya o‘z yo‘nalishiga ega bo‘lib, belgilangan geologik topshiriq asosida ish olib boradi. Foydali komponentlarni ajratib olishning zamonaviy usullari joriy etilishi, asosiy foydali elementga yo‘ldosh sifatida keluvchi qo‘shimchalarni ham chuqur o‘rganishni talab etadi. Misol uchun, “Ma’dan hosil bo‘lish jarayonlari” laboratoriyasi ilmiy xodimlari tomonidan noyob yer elementlarini qidirish, ularning tarqalish qonuniyatlarini o‘rganish va zaxiralarini bashoratlash borasida “Sharqiy va G‘arbiy O‘zbekiston uran ma’danli hamda flyuorit konlarining nodir va kamyob yer metallari istiqbollarini baholash maqsadida ma’dan formatsion tahlili” mavzusida geologik tadqiqotlar olib borilmoqda.

Shuningdek, Namangan viloyatining Chodak, Chorkesar hududlaridan va Toshkent viloyatining ma’danli maydonlaridan 500 ga yaqin namunalar olib kelinib, laboratoriya tahlillari o‘tkazilmoqda. Bu o‘z navbatida, Sharqiy O‘zbekistondagi uran konlarining istiqbolli hududlarida nodir metallar va noyob yer elementlari ma’danlashuvining sanoat konsentratsiyasini aniqlash imkoniyatini tizimli o‘rganish va baholashga zamin yaratadi.

Olib borilayotgan ilmiy va amaliy izlanishlar mamalakatimiz foydali qazilmalar zaxirasini kengaytirishni, uning iqtisodiy salohiyatini oshirishni nazarda tutadi. Texnologiyalar kundan kunga rivojlanib borayotganini inobatga oladigan bo‘lsak, noyob va kamyob elementlarga talabning oshishi bizning loyihalarimiz qiymatini va professional mas’uliyatimizni oshiradi.

– Mazmunli suhbatingiz uchun rahmat. Kelgusidagi izlanishlar, ilmiy faoliyatingizga muvaffaqiyat tilaymiz.

Muyassar IBROHIMOVA
suhbatlashdi.



BO‘LAR EKAN-KU!

Boshlanishi 1-sahifada.

Rozilik berdim. Katta nevaram maktabga boradi, kichigi uyda. Mening vazifam – shularga qarab o‘tirish. Axir bir so‘mni kim beradi? Yana ko‘pi bilan bir oy ichida ayrim ishchi-xizmatchilar ikki oyda ishlab topadigan pul egasi bo‘ladi. Shu mablag‘ni ro‘zg‘orning kerak-ketigiga ishlatishadi. Agarda asosiy oziq-ovqat mahsulotlari tomorqa va qo‘shimcha tomorqadan chiqishini aytsak, qishloq joylarda bu pulga ro‘zg‘or qozonini hech qiynalmay besh oy qaynatish mumkin.

Uch yil oldin Xonqa tumani hokimligi matbuot xizmati rahbari bo‘lib ishlaganimda tuman markazida yashovchi bir oiladan uch kishi (oila bekasi, kelini va qizi) paxta mavsumida 24 million so‘m ishlab olishgani haqida boshqalarga ibrat bo‘ladigan maqola yozgan edim. O‘rganganim ro‘yxatda terim mavsumida 20 milliondan oshiq pul ishlab topganlar anchagina edi. Bu mablag‘ besh-olti kishilik oilaning bir yillik oziq-ovqat xarajatiga yetib ortadi. Ba’zi kasb egalari shuncha mablag‘ topish uchun salkam bir yil ishlashadi.

Bugun paxta terimi qishloqlar-u tuman markazlarida yashaydigan, uyida bo‘sh o‘tirgan ayollar uchun juda katta imkon. Kuniga 200 kilogramga yaqin paxta teradigan chevar xotin-qizlar bor, axir. Asosiysi, havo iliq, ish sharoiti yaxshi. Yana fermerlar tushlikda issiq ovqat berishadi. Uzoqroqdan qatnaydigan terimchilar uchun mavsumda muntazam ulov – avtobus, mikroavtobus yoki “Damas” yengil mashinalarini xizmatga yollashadi.

O‘tgan yilgi gap: paxta mavsumida ertalab ishga borayotib qo‘shni elatdagi dala maydoni terimchilar bilan to‘lib-toshganiga ko‘zim tushdi. Kechqurun ishdan qaytayotganimda ne ko‘z bilan ko‘rayki, ertalab qiyg‘os ochilgan paxtazor qop-qora tusga kiribdi. Salkam olti gektarlik daladagi paxtani kun davomida terib olishibdi.

Yo‘l chekkasida paxta ortilgan traktorlar yonida turgan fermerga “hormasin” aytib, xirmoniga baraka tiladim. U o‘zida yo‘q xursand: “Qarang, kecha elatga “Terim pulini tarozi ustida beraman!” deb e’lon qiluvdim. Ertalab yuz ellik chog‘liq xotin-qiz keldi. Peshingacha 21 tonna paxta terishdi. Ishchilarim zo‘rg‘a o‘lchab, pritsepga ortishga ulgurishdi. Ertaga narigi daladagi paxtani teramiz. Bu borishda bir haftada otizlarni tozalasak kerak”.

...O‘n yillar oldin g‘alla-paxta yetishtiradigan kichikroq fermer xo‘jaligimiz bor edi. Ayni o‘sha yillari paxta terish mavsumini tezkor o‘tkazish tajribasi endigina tamoyilga kira boshlagan. Bunda terim pulini tarozi ustida berish amaliyoti ilk bora joriy qilingan edi. Esimda, to‘qqiz gektarlik maydondagi paxtani elatimiz xotin-qizlari uch kunda terishgan. Ammo paxta qabul qilish zavodiga eltib topshirishga maxsus tashuv aravali traktorlar topishga qiynalgandik.

Va yana esimda qolgan voqea: bir kuni ertalab dalaga borsam biror ellik chog‘li maktab o‘quvchilari allaqachon qator oralab ketishibdi. Dala chetida turgan sobiq sinfdoshim bo‘lgan o‘qituvchi ham hazil, ham chin ma’noda uzrini aytdi: “Maktab o‘quvchilariga har kuni falon tonna paxta terish topshirilgan. Fermerlar uchinchi terimni boshlashgan, ko‘p otizlarda paxta qolmagan. Sening dalangda yangi ochilgan paxta bor, deb bolalarni olib keldim. Meni haydamassan!”

Biror hafta oldin maktab direktori iltimosini rad qilgan edim: “Otizimga o‘quvchilar kirishiga yo‘l qo‘ymayman!”

U endi hokimlikdan berilgan topshiriqni bajarish uchun shu yo‘lni tanlagan – sinfdoshimni balogardon qilgan.

Ancha tortishuvdan so‘ng baribir o‘quvchilarni daladan chiqarib yubordim va kechqurun buning uchun hokimdan dakki ham eshitdim.

O‘sha voqeani hozir ham eslab yurishadi: “Sen qishloqdagi fermerlar orasida birinchi bo‘lib maktab o‘quvchilariga paxta tergizmayman!” deb qat’iyat ko‘rsatganding. Vaqt kelib, yangi Prezidentimiz bu yomon an’anaga tamomila chek qo‘ydilar!”

Paxta atalmish tabiatning noyob mo‘jizasi sho‘ro zamonlarida(mustaqillikdan so‘ng ham davom etdi) barcha uchun, ayniqsa maktab o‘quvchilariga ikki-uch oylab zulm vositasiga aylanganini katta avlod vakillari o‘z boshidan kechirishgan.

...Har gal “paxta” so‘zini eshitganimda, eslaganimda beixtiyor qo‘lim o‘ng qulog‘im ustiga boradi. O‘ng qulog‘im ustidagi bosh barmoq kirgulik o‘yiq menga o‘sha zamonlarni – paxta zulmini hamisha eslatib turadi.

Uchinchi sinfda o‘qirdim. Sentyabr boshidayoq barchamizni paxtaga haydashdi. Bir haftalardan so‘ng terim mashaqqatiga majburan ko‘nika boshladik. Ko‘nikmay ilojimiz qancha?

U vaqtlari kun bo‘yi tergan paxtalarni katta-katta qoplarga solardik. Kechqurunga yaqin aravali traktor kelar va unga qoplarni ortib, paxta xirmoniga yuborardik. Kun bo‘yi charchaganimizdan xirmonga traktor aravasida borish orzumiz bo‘lardi. Ammo traktorchilar aravasiga mindirishmaydi: “Yiqilsang-u biror kor-hol bo‘lsa, melisa oldida bosh yalang‘ochlab o‘tiramanmi?”

Traktorchi yon qo‘shnimiz – amaki og‘aynimiz Ortiq aka edi. O‘ta kamgap, beozor odam. Bir kuni kutilmagan voqea sodir bo‘ldi. Qoplarni traktor aravasiga ortgach, ortidan tengqur to‘rt bola sekin borib, ustiga chiqib oldik. Buni amakim ko‘rgan ekan – traktorini to‘xtatdi va so‘kinib ketdi. Bizlar qoplar orasidan chiqib, o‘zimizni pastga tashlab qochmoqchi bo‘ldik. Traktorchi po‘pisa uchun yo‘lda yotgan kesakni olib biz tomonga otdi...

Boshimga nimadir tekkanini bilaman, u yog‘i esimda yo‘q. Ertasi kuni tongda kasalxonada hushimga keldim. Shifokorlar aytishicha, qattiq so‘g‘a tuproqli kesak boshimga zarb bilan tekkan – o‘rni barmoq kirgulik o‘yiqqa aylangan.

Menga “bosh miya chayqalishi” tashxisini qo‘yishdi. Bir oycha kasalxonada davolandim. Bu orada militsiya xodimlari kelib, ro‘y bergan voqeani so‘rab-surishtirib, qandaydir qog‘ozlarga qo‘l qo‘ydirib ketishdi.

Indiniga amakim bir tugunda qand-qurs ko‘tarib keldi. Kayfiyati yo‘q. “Men bilmay qoldim”, deb ko‘zlariga yosh oladi. Men bola boshim bilan nima ham deyman?

Keyin bildimki, bu mojaroni “tinch yo‘l bilan hal qilish” uchun o‘sha militsiya kattalari amakimning yolg‘iz sigirini sottirishgan...

O‘shanda onam mening ahvolimni ko‘rib beixtiyor amakimni “O‘g‘limga kesak otgan qo‘llaring akashak bo‘lsin!” deb qarg‘agani uchun bir umr afsuslandi. Sababi, uch yildan so‘ng amakim yerdan to‘plangan sifatsiz paxtani qayta ishlaydigan “vorox” degan uskunada ishlayotganida tiqilib qolgan paxtani olaman deb qo‘lini yamlatib, bir umr nogiron bo‘lib qoldi.

Aslida amakim va menda ayb yo‘q edi. Biz sho‘rolar olib borgan paxta siyosati – “paxta fronti”ning qurbonlari edik, xolos.

Bog‘ot tumaniga salkam o‘n to‘rt yil hokimlik qilgan Ro‘ziboy Bekchonov yarim tunda fermerlar-u idora-tashkilot rahbarlari bilan kunlik paxta terimini muhokama qilayotganida beixtiyor bir gapni aytib yuborgan: “Bugun “Atov” mavzesidagi hasharchilar oldiga bordim. Sog‘liqni saqlash xodimlari paxta terayotgan ekan. Jarrohlik bo‘limi hamshirasi menga paxta chanoqlari yorib yuborgan barmoqlarini ko‘rsatib: “Hokim buva, men ertaga jarrohlik amaliyotida qatnashishim kerak. Bu qo‘l bilan o‘lim bilan olishayotgan bemor tanasiga qanday davo qilishim mumkin?” dedi. Tilim tutilib, bir og‘iz gap ayta olmay ortimga qaytdim. Menga oson deysizlarmi? O‘sha shifokorlar meni yurak xastaligidan jarrohlik yo‘li bilan xalos qilishgandi... Boringlar, majlis tamom!”

O‘sha zamonlarda hech kimga oson bo‘lmagan. Paxta mavsumida prokuror har kuni o‘ziga biriktirilgan hududdagi maktab direktorlarini “Necha bola terimga chiqdi? Nega kam terishdi?” deb olib borib-olib kelar, so‘ng minbarlarda bola huquqlaridan lof urardi. Fuqarolar xavfsizligini saqlashga mas’ul ichki ishlar xodimlari kunlik rejasi bajarilmagan fermer qo‘liga kishan solishardi...

“Sizlar faqat va faqat yaxshi o‘qishlaringiz kerak!” deya “Birinchi qo‘ng‘iroq”da nutq so‘zlagan maktab direktori biror haftadan so‘ng o‘quvchilarni paxta dalasiga haydardi...

Muhtaram Prezidentimiz ana shu adolatsizliklarga chek qo‘ydilar. O‘sha o‘tmish – kuni kechagi voqealar bugun ertakka o‘xshab qoldi.

Islohotlarning so‘nggi bosqichida paxta yetishtirishda songa emas, sifatga katta e’tibor qaratilmoqda. Endi asosiy urg‘u yetishtirilgan miqdordagi katta raqamlarga emas, undan olinadigan daromad samaradorligiga qaratilyapti. Negaki...

Mustaqillikka erishguncha bo‘lgan davrda yetishtirgan umumhosilning atigi 8 foizi o‘zimizda qayta ishlangan. Asosiy paxta xomashyo sifatida suvtekinga boshqa o‘lkalardagi yengil sanoat tizimlariga yuborilgan. O‘tgan asrning oxirlariga kelib bu miqdor, ya’ni paxtani o‘zimizda qayta ishlash 30 foizgacha ko‘tarildi. Hozirda bu raqam 80 foizga yetdi. Prezidentimiz paxtachilik klasterlari oldiga ko‘rsatkichni 100 foizga yetkazish vazifasini qo‘yganlar.

Birgina Bog‘ot tumani misolida olib qaraylik. Istiqlolgacha tuman har yili 35-40 ming tonna paxta yetishtirar va uni xomashyo sifatida chetga chiqarardi. Hozir tumanda paxtani qayta ishlovchi – kalava ip va tayyor mahsulotga aylantiruvchi uchta yirik ip-yigiruv va to‘qimachilik korxonalari ishlab turibdi. Yana bittasi qurilyapti. Bu korxonalarda minglab mahalliy xotin-qizlar ishlab, mehnatiga yarasha ish haqi olyapti. Istiqbolda tuman fermerlari yetishtirgan paxtani shu yerning o‘zida yuz foiz qayta ishlash loyihasi amaliyotga aylantirilyapti.

Ma’lumki, bir kilogramm xom paxta jahon bozorida bir dollar atrofida baholanadi. Agarda u kalavaga aylantirilsa, bir kilogrami uchun 3–3,5 dollar daromad topsa bo‘ladi. Shu kalavadan kiyim-kechak tayyorlansa, bir kilogramm paxta keltiradigan daromad 12 dollargacha ko‘tariladi.

Sobiq sho‘rolar davrida “million egatlarga sochilgan o‘zbek” yetishtirgan paxtasini suvtekinga, ya’ni xomashyo sifatida yengil sanoat korxonalariga yetkazib bergan. Uning bor foydasini issiq, shinam yengil sanoat korxonalarida ishlayotganlar ko‘rishgan.

Paxta aslida tinmas-bitmas xazina. Undan olinadigan mahsulotlarni sanab sanog‘iga yetish qiyin. Bir nechtasini keltiramiz: rezina quvurlar, parashyut, kirza tayyorlash uchun maxsus matolar, kord materiallari, kinotasmalar, lak va bo‘yoqlar, oliy navli qog‘ozlar. Chigitidan iste’mol yog‘i olinadi. Paxta yog‘i olinganidan so‘ng qolgan chiqitidan sanoat yog‘i, alif, ulardan esa glitserin, steorin, xo‘jalik va atir sovunlari ishlab chiqariladi. Eng so‘nggi chiqindisi – short va sheluxa chorva uchun to‘yimli ozuqa.

Bir so‘z bilan aytganda, qishloq xo‘jaligida paxta kabi ko‘p mahsulot olinadigan boshqa ekin turi yo‘q.

...Bir vaqtlari olti million tonna uchun beli mayib, jigari so‘xta, pushti nogiron bo‘lgan “oltin qo‘lli” xalqimiz bugun o‘z erkini qo‘liga olib, salkam bir asr zulm vositasi bo‘lgan bechora paxtani qayta ardoqlashga o‘tdi. Yetishtirish deyarli ikki hissa kamaygani holda, olinayotgan daromad bir necha baravar ko‘p bo‘layotir. Ya’ni, kechagi tekin xomashyo tayyor mahsulotga aylanmoqda. Paxtadan bo‘shagan maydonlarga boshqa turdagi qishloq xo‘jaligi ekinlari ekilayotir. Minglab gektar bog‘lar barpo qilingan. Bular esa bozorlarimiz to‘kin, narx-navolar arzonligini ta’minlash bilan bir qatorda ming-minglab yurtdoshlarimiz uchun boshqa sohalarga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari tuzib, ish o‘rinlari ochish va salmoqli daromad topishiga zamin yaratib bermoqda.

Shu o‘rinda kichik misol: bizga qo‘shni Dehqonobod qishlog‘idagi barcha paxta maydonlari fuqarolarga uzumchilik uchun ajratib berildi. Qishloqdagi beshta mahallada yashayotgan salkam yigirma ming adadli aholi har yili o‘rtacha 14-15 million dollarlik uzumni chetga eksport qilyapti.

Bog‘ot tumani fermerlari mavsumda 25 ming tonna paxta yetishtirishga ahd qilishgan. Yuqorida eslatganimizdek, shu miqdor paxta bir vaqtlari yetishtirilgan 40 ming tonna paxtadan ikki hissa ko‘proq foyda keltirmoqda.

Elatimizdagi fermer xo‘jaligi rahbari, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan paxtakor Yusufboy aka Ro‘zmetov bir gapni ko‘p takrorlashni yaxshi ko‘radi: “Sovet zamonida kolxozda uzoq yillar agronomlik qildim. Yil-o‘n ikki oy “paxta” deb uxlab, “paxta” deb o‘rnimizdan turardik. Sog‘lig‘imizni shu yillari boy berganmiz. Endi esa hammasi erkin, o‘z yo‘lida. Yilda ikki marta nufuzli sanatoriylarda dam olaman. Yuz gektarlik maydonimizda yetishtirgan paxta va g‘alla daromadi yordamchi o‘g‘illarim va ikki ishchimning zamonaviy yengil mashina xarid qilishiga imkon yaratdi. Oldinlari paxtani qora qishgacha va hatto qor tagida terardik. Hozir ishlar shunday yo‘lga qo‘yilganki, terim mavsumi ko‘pi bilan bir oyning nari-berisida yakunlanadi. Bu orada qishning sovug‘iga qolmasdan dalalarni g‘o‘zapoyadan tozalab, shudgor qilib, bir marta sho‘rini yuvishga ham ulguramiz. Bo‘lar ekan-ku! Aslida son emas, sifat, raqam emas, daromad eng muhimi ekan!”

Ro‘zimboy HASAN,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

TADBIR

FIDOKOR TARIXCHI

Kuni kecha Jadidlar harakati namoyandalaridan biri Po‘lat Soliyev nomini abadiylashtirish maqsadida poytaxtimizdagi Beshyog‘och ko‘chasida joylashgan 18-uyga o‘rnatilgan xotira lavhining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Turkiston xalqlari tarixini ilmiy-nazariy tadqiq etishning zamonaviy maktabini yaratishga bel bog‘lagan fidokor tarixchi olim Po‘lat Majidovich Soliyev (1882–1937) birinchi o‘zbek professori hisoblanadi.



Tadbirda so‘zga chiqqanlar Po‘lat Soliyevning xalqimiz oldidagi beqiyos xizmatlarini e’tirof etishdi. Shuningdek, olimning shiddatli hayot yo‘li, ilmiy faoliyati, jumladan, 1920-yillarda Qur’oni karim matnini ilmiy sharhlar bilan ilk bor o‘zbek tiliga tarjima qilgani, “Buxoro tarixi” (1923) va “Mang‘itlar saltanati davrida Buxoro o‘lkasi” (1925) kabi asarlarni yozgani ta’kidlab o‘tildi.


– Po‘lat Soliyevning ilmiy faoliyatidagi muhim asar – “O‘zbekiston tarixi”ni yaratishi bo‘ldi. Bu qadimgi, o‘rta asr va zamonaviy tarixchilarning asarlari hamda boshqa manbalardan olingan ma’lumotlarni jamlash, umumlashtirish imkonini berdi, – dedi Tarix instituti direktorining o‘rinbosari, professor Dilnoza Jamolova. – Po‘lat Soliyev uni taxminan 1935-yili yozib tugatgan va qo‘lyozmani O‘zbekiston SSR kompartiyasi markaziy qo‘mitasi Ishchi guruhiga muhokama qilish uchun topshirgan. Afsuski, 1937-yili Po‘lat Soliyev qamoqqa tashlangach, ushbu qo‘lyozma nusxasi yo‘qotilgan. Bir yil hibsda saqlangan jafokash olim 1938-yil 13-oktyabrda otuvga hukm qilingan.

Tadbir nihoyasida millat tarixi jonkuyari bo‘lgan olimning avlodlari, nabiralari nomidan Lola Muhiddinova so‘zga chiqib, tashkilotchilar va ishtirokchilarga minnatdorlik bildirdi.

O‘z muxbirimiz

12-SENTYABR – SHAVKAT RAHMON TAVALLUD TOPGAN KUN

MILLATNI UYG‘OTISH ORZUSI



XX asr o‘zbek she’riyatida kechgan yangilanishlar – bu, avvalo, badiiy tafakkurdagi o‘zgarishlardir. Zero, har qanday ijod mahsuli zamon va makon, ulardagi o‘zgarishlar va ijodkorning bevosita munosabatini o‘zida aks ettiradi. Insoniyatning azaliy va abadiy muammolarini badiiy-falsafiy idrok eta bilgan chinakam shoir bu muammolarni o‘z davri, xususan, zamon muammolari, zamondoshlarining dardlariga uyg‘un kayfiyatda ifodalashga erishadi. Shu bois keyingi yillari bir-biriga yaqin zamonlarda yashasa-da, ijodining mazmuni, mavzusiga ko‘ra farqlanadigan, majozan aytganda, hayot deb atalgan dengizda o‘z to‘lqini qudratini namoyish etishga qodir avlodlar paydo bo‘ladi. Har bir avlod o‘zi kirib kelgan davrga boshqalarga nisbatan xiyla yaqinroq turadi.

XX asrning 70–80-yillari voqeligi ana shu davrda adabiyotga kirib kelgan avlod ijodida yorqinroq aks etdi. Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xurshid Davron va ushbu avlodga mansub boshqa shoirlar she’rlaridagi yetakchi g‘oyalar, ularda aks etgan mavzular qamrovi, o‘ziga xos ifoda shakllarini bevosita ana shu davrning badiiy mahsuli deb ayta olamiz.

Hali biror ishni
uddalamadim,
hali hech kimsani qilmadim rozi,
behuda o‘tibdi go‘zal umrimning
qanchalab chiroyli bahori, yozi.
Men orom borligin unutib qo‘ydim,
bag‘rimga chaqinlar tegdi daf’atan,
Sendan-da ulug‘roq narsa yo‘qligin
sochim oqarganda angladim, Vatan!

Shavkat Rahmon she’riyatining mavzusi endilikda uning hayot mazmuniga aylangan Vatan ekanligi baralla aytilmoqda. Shoirning keyingi she’rlarida bir qarashda, ushbu mavzuga aloqasi yo‘qdek tuyulgan tasvirlar ham alal-oqibat Vatan va vatanparvarlik tuyg‘ulari, o‘y-kechinmalari, orzu-istaklari, armon-u nadomatlarining ifodasi bo‘lib kelaveradi:

…Axir o‘zbekning bir o‘jar shoiri
qarsak chalarmidi bema’ni gapga.
Vijdonsiz shoirlar ko‘paygan juda.
Yurakni so‘z bilan yondirguvchi kam,
xalqimas,
shuhratni o‘ylab so‘ylagan
ahmoqqa bermayman qarsagimni ham.

Shavkat Rahmon she’riyatida ijtimoiylikning keng o‘rin egallashini tabiiy ravishda davr talabi, qolaversa, shoirdagi grajdanlik ruhining badiiy pozitsiya darajasiga ko‘tarilishi sifatida baholash lozim. Shoir suhbatlarining birida shunday deydi: *“...She’r kayfiyat mahsulidir. Kayfiyat ildizlari kundalik hayotimizda, kundalik hayotimiz esa siyosat bilan bog‘liq”.* Xalq hayotining sovet siyosati sababli tanazzulga tushganligini teran anglagan shoir uning turmushini, ijtimoiy holatini kuzatar ekan, ko‘plar ichida o‘z millatining, millatdoshlarining qadr-qimmatini anglab yetishlarini istaydi, ommaning mudroq holatidan iztirobga tushadi. Istak va iztiroblar millatni uyg‘otish orzusini harakatga keltiradi. U millatparvarlikni ulug‘ tushunchalar qatorida ardoqlaydi. *“...Millatparvarlik baland g‘oyadir va bu g‘oya bugungi adabiyotning yetakchi mavzusiga aylanmog‘i, har bir vatandoshimizda millatparvarlik tuyg‘usini uyg‘otmog‘i zarur”,* degan aqida bilan yashaydi.

O‘z navbatida, shoirning ijodida ham ushbu mavzu yetakchi o‘ringa o‘tadi. “Avtobusdagi o‘ylar” she’ri fikrimizning dalilidir. She’r lirik qahramoni – yo‘lda ketayotgan yo‘lchi. Avtobus, yo‘l, yo‘lovchilarning holat va kechinmalari, yo‘l cheti manzaralari – barcha-barchasi poetik kontekstda lirik qahramonning o‘y-kechinmalari, baholari bilan bog‘liq ravishda o‘zgacha badiiy mazmun kasb etadi. Endi “yo‘l”, “yo‘lovchi”, “avtobus” obrazlariga o‘zgacha falsafiy-badiiy mazmun yuklanadi. Shoir o‘z uslubiga xos poetik tafakkur yuritadi. Bu o‘rinda qishloqlar yo‘l chetida pista, qurut sotuvchi chollarga mengzaladi. Shoir nazarida sodda qishloqlar yo‘l chetida shunchaki tomoshabin bo‘lib turishgani yo‘q. Ular olis bir sayohat va safarga chog‘langandek ko‘rinadi:

Qayga boradilar,
loygarchilikda
qay orzu-istaklar bag‘rini ezar?

Lirik qahramonning ushbu savoli *sodda qishloq* poetik obrazining ma’nosiga yanada oydinlik kiritadi. Shoir yo‘lchi – lirik qahramonni boshqa yo‘lovchilardan ajratadi. Sodda qishloqlarga sovet davridagi O‘zbekistonni tamsil etadi. Shoirning safar, sayohat haqida eslashi bejiz emas. U bu fikr bilan mehnatga bog‘lab, qora ishchiga aylantirilgan xalqini ana shu mahkumlikdan ozod etib, orzusidagi erkin mamlakat fuqarosiga aylantirmoqchi. Poetik matndagi *“loygarchilikda”* so‘zi xalqning mahkumligiga ishora. She’rning keyingi misralarida shoirning dardi, armonlari yanada teranroq ifoda topadi.

Paxtazor boshlanar,
kirza etikli,
yuzlarin quyoshlar yalagan qizlar
ming bora egilib,
ming bor yalinib,
har mitti g‘o‘zani uyg‘otar sizlab.
Bir zum bosh ko‘tarib,
yerga o‘xshagan
qo‘llarin silkitib nenidir so‘ylar,
go‘yoki qo‘llarmas,
qo‘llar shaklida
rostlanib havoda titraydi o‘ylar.

Paxtazorga epitet bo‘lib kelayotgan *“kirza etikli”* so‘zi zamirida xalqning paxta dalasida kechayotgan zahmatli kunlari, *“mitti g‘o‘zalar”*ni sizlab uyg‘otishga butun quvvatini, umrini bag‘ishlayotgan qizlarning *“havolarda titrab”* qolib ketayotgan o‘ylari, taqdiri lirik qahramonning og‘riqlari bo‘lib eshitiladi. Shoir *“kirza etikli”* epitetini bir paytning o‘zida dalalar va qizlarga taalluqli etib tasvirlagani assotsiativ ma’noni yanada kuchaytiradi.

Yo‘l chetida yo‘lchi qorachig‘iga yaxlit-yaxlit manzaralar bo‘lib joylashayotgan tasvirlar yanada tiniqlashadi. Shoir endi o‘zbek obrazining portretini mehr va iztirob bilan chizadi:

Turkona hovlilar kunga qaragan,
achchiq mevasidan shirin boli ko‘p,
ko‘rimsiz eshiklar mangu yopilmas,
teragidan ko‘ra majnuntoli ko‘p...
Sabr daraxtiday o‘sgan odamlar –
saksovul singari chidamli, chayir,
yerga botib ketgan bahodirlarday
kunlarga qaraydi
siniq iljayib.

Keltirilgan tasvirlarning barchasi yo‘lchi – lirik qahramon avtobus derazasidan kuzatgan manzaralar edi.

Shoir tasvirni avtobus ichiga ko‘chirganida avtobus obrazining ko‘chma ma’nosini yanada teranroq anglaymiz.

Mayxonaga o‘xshar
avtobus ichi,
yosh-yalanglar chaynar nag‘malarini.
Bir butun olamni ko‘rmadim bunda,
ko‘rdim men odamning zarralarini.
Ko‘ngil ag‘darilar
latifalardan,
orzular, qarashlar naqadar kalta.
Nega gapirishmas separatchilar
Indira Gandini otgani haqda?!

“Avtobus”dagi “olam” shoir orzu-ideallariga zid – olomonchilik olami. Bir qarashda, keltirilgan misralar obrazlilikdan xoli, axborot xitoblarga o‘xshaydi. Lekin ular umumpoetik matnda shoir nazarda tutgan g‘oyani ifodalashga xizmat qiladi. Shoir lirik qahramon tilidan “avtobus olomoni”ga qarata:

...Shular o‘ylarmikin tuprog‘imizni,
shular ko‘tararmi elning yukini!?
Qani birortasi
bitta so‘z aytsa,
so‘qimlar davrasin nogoh to‘zitib,
shoir yuragimni yulib berardim
birgina Turkiston degan so‘z uchun...

– deya xitob qiladi. Ushbu so‘nggi “Turkiston” degan xitob she’rdagi sayohat manzilining ma’nosiga aniqlik kiritadi.

She’rning so‘nggi qismida sayohat oxirlagani aytilar ekan, xalqni uyg‘otish fasli yetib kelgani, avlodlarning ajdodlarga munosib voris bo‘lish mas’uliyatini his qilish kerakligi uqtirilayotgandek bo‘ladi. Shoir xotimada uxlayotgan omma manzarasini berish orqali xalqni ogohlikka, hushyorlikka, kurashga chorlaydi:

...oxirlab qolganda hamki sayohat,
bilishmas, ne uchun xo‘mrayar tog‘lar,
bu azim daryolar oqar qayoqqa...
Bolalar, kampirlar,
chollar mudraydi,
mehnatkash qo‘llari yoziqligicha,
bu dono yigitlar,
bu dono qizlar
uxlaydi ko‘zlari ochiqligicha.

“Avtobusdagi o‘ylar” tom ma’noda majoziy she’r, majoziylik she’rda botartib kelgan manzaralar tasviridan, manzaralar umumlashib, hosil etgan yaxlit asardan, asardagi har bir so‘z – obrazdan anglashilib turadi.

Shavkat Rahmonning ijtimoiy mavzudagi she’rlarini mohiyatan umumiy bir maxrajga keltirish mumkin. Ularda xalqning sobiq sovet davridagi ahvoli, yuz yildan ortiq vaqt davomida arosatda saqlanish oqibatida so‘ngan ruhiyati, turli ta’qib, yasoqlar bilan shonli tarixi, ma’naviyati va madaniyatidan ajralib, yot g‘oyalarga asir etilgani, oqibatda o‘zligini unutish darajasiga kelgan mute avlodlar shakllanib kelayotganining og‘riqlari hamda xalqni ana shu zanjirlardan ozod etishga, o‘zligini anglashga chorlash yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shavkat Rahmon va u mansub bo‘lgan davr she’riyatida yangi ijtimoiy mavzuning ishlanishi XX asr o‘zbek adabiyoti ko‘lamida o‘rganilsa, muayyan tadrijiylikka asoslangan muhim prinsip ko‘zga tashlanadi: 20-yillar avlodi she’riyatida qo‘ldan ketayotgan vatan qayg‘usi kuylangan bo‘lsa, 70–80-yillar she’riyatida vatan mustaqilligi, erk va ozodlikni qayta qo‘lga kiritish baralla yangradi. 20-yillar she’riyatida dastlab, oshkora aytilgan ijtimoiy fikr keyingi davr adabiyotida majoz yo‘lida – ramz va ishoralar, tagma’noli ifodalar yordamida kuylangan bo‘lsa, 70–80-yillar she’riyatida oshkoralik va qayta qurish siyosati bois timsol va majozlar qobig‘i olib tashlandi, shoirlar Vatan haqida ochiq-oydin yozish imkoniyatini topdilar. Shavkat Rahmon she’riyati ana shu shiddatli davrning yorqin namunasi sifatida maydonga chiqqan edi.

Ra’no MULLAXO‘JAYEVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

BU KITOBLARNI O‘QIDINGIZMI?



“Erkin aka katta izdihomlarni yoqtirmaydi. Hamma bilan ham til topishib, chaqchaqlashib keta olmaydi. Ammo o‘ziga ma’qul tushgan odam bilan soatlab gurunglashishi mumkin. O‘ziga xos xarakterli odam. Yozuvchining fe’l-atvoridagi o‘jarlik, qaysarlik, haqiqatparastlik, adolatparvarlik uning qahramonlariga ham ko‘chgan...” Ushbu fikrlarni filologiya fanlari doktori Marhabo Qo‘chqorovaning “Erkin A’zam – sarkazm ustasi” nomli kitobida o‘qishingiz mumkin.

“Erkin A’ZAM – sarkazm ustasi”

Adabiyot rivoji, albatta, ilm, ya’ni adabiyotshunoslik bilan bog‘liq. Birgina misol: zabardast ijodkorlarning asarlarini targ‘ib qiladigan, uning xususiyat va kamchiliklarini aytadigan yetuk olimlar XX asr adabiyotida muhim rol o‘ynagan. Adiblarning turfa janrdagi asarlari haqida yozilgan tahlillarning ahamiyati beqiyos bo‘lgan.

Bugungi kunda ham zamonaviy adabiyotni tadqiq qiladigan o‘tkirnazarlarga ehtiyoj katta. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti o‘rganiladigan katta adabiy bazaga aylanib bo‘ldi. Demak, adabiyotshunoslarning o‘rni ham shunchalik muhim.

Adabiyotshunos, olima Marhabo Qo‘chqorovaning Erkin A’zam ijodi haqida bitgan “Erkin A’zam – sarkazm ustasi” kitobi “Fan” nashriyotida chop etildi. Filolog mutaxassislar, yozuvchining muxlislari, talabalar va keng jamoatchilik uchun mo‘ljallangan ushbu monografiyada yozuvchi ijodi bir butun holda tahlil qilingan. Uni o‘qigan odamning beixtiyor adib ijodiga mehri oshadi, asarlarini yana bir bor o‘qish istagi paydo bo‘ladi.


Erkin A’zam asarlarini o‘qigan kitobxon uning so‘z o‘yiniga, qochirimlariga, tasvirlariga shaydo bo‘ladi. Adib mohirlik bilan so‘zga sayqal beradi. Asarlari jiddiy mavzuda, shunga monand qahramonlari obrazi ham betakror, ular shunaqa kinoyali gapiradiki, beixtiyor o‘quvchining yuzida tabassum paydo bo‘ladi.

Ovoz chiqarmay turib aytish, kulmay turib kuldirish, me’yordan oshirmay mubolag‘a qilish – ijodkor uslubi... Yozuvchining ustaligi va mahorati ham shunda.

Erkin A’zam asarlaridagi sarkazm, mubolag‘a, satira, so‘z o‘yinlarini topib uni tadqiqotga tortgani – olimaning yutug‘idir. Kitob sakkiz qismdan iborat. Uni mutolaa qilish asnosida muallif mazkur risolani yaratish ustida bir necha yillar izlanganiga amin bo‘lasiz.

Adabiyotimiz va ijodkorlar baxtiga ana shunday fidoyi va jonkuyar sinchilar ko‘paysin. Shundagina adabiy asarlarning biz payqamagan, faqatgina sinchilargagina ko‘rinadigan qirralari namoyon bo‘laveradi. Adiblarimizning mahorat sirlari havasmand qalamkashlar ko‘z oldida kashf etilaveradi.

Zikrilla MAMATOV



“Men yolg‘iz kuylarman yagona tilimda”

“...Adabiyot o‘qituvchisining: “Turkcha adabiyotga uyg‘un til emas. Fors va arab kalimalarisiz turkcha she’r yozish mushkul”, degan gapi Temur Xo‘jaga og‘ir botadi.

Temur Xo‘ja bu alamli og‘riqni ko‘nglida olib yuradi. Va nihoyat, javob qaytaradi. Bu – “Sevgi so‘zlari”dir. To‘plamdan bir qatordan iborat she’rni aynan keltiraman: “Sochlarim oqardi, tong oqarmazmi?!”

Bu she’r zulmat haqida. Zulmatning zamirida esa zulm bor. Bir misra ham she’riyatni boyitishi, ko‘ngillarni zulmatdan forig‘ etib, yoritib yuborishi mumkin. Xuddi Fuzuliy zamonidan, Rauf Parfi diyoridan taralgan fig‘on kabi... “Vatan” tushunchasi ham zamondek, vaqtdek, ko‘ngildek murakkabdir...”

Yuqoridagi iqtibos asli o‘zbekistonlik, Buxoro Jumhuriyatining birinchi raisi Usmonxo‘janing o‘g‘li, o‘zbek adabiyotining xorijdagi fidoyi targ‘ibotchisi Temur Xo‘janing “Qamar – media” nashriyotida chop etilgan “Sevgi so‘zlari” she’riy kitobiga yozilgan so‘zboshidan olindi. Tarjimon va so‘zboshi muallifi – Yo‘ldosh Eshbek.

Biz ustoz Temur Xo‘jani nuktadon olim, jadid adabiyoti namunalarini ingliz tiliga o‘girgan mohir tarjimon, shuningdek, keng mushohadali muarrix va tilshunos sifatida bilardik. “Men Turkiston adabiyoti, she’riyatidagi eng buyuk uch siymo – o‘zbek shoiri Abdulhamid Cho‘lpon, uyg‘ur shoiri Abduxoliq Uyg‘ur va qozoq shoiri Mag‘jon Jumaboy o‘g‘li qalamiga mansub she’rlarni ingliz tiliga o‘girdim va ularni “Ozodlik va muhabbat to‘g‘risida: Ovrosiyo vodiylaridan lirika” deb nomlangan kitob holiga keltirdim. Uni yaqinda Amerikada chop etish niyatim bor”, deydi olim.

“Sevgi so‘zlari” she’riy to‘plami esa Temur Xo‘janing nazm borasida ham ajib ta’bi, kutilmagan ifoda uslubiga ega shoir ekanini tasdiqlaydi:

TILLANMOQ
Men yolg‘iz kuylarman
yagona tilimda
She’rlarimda
tillanurman men yolg‘iz...

SEVGAN
kishi qololmas yolg‘iz –
davomli biri bor ko‘nglida...

OQ
sariq yashil barcha
tuslarni kirlatdik,
eng so‘ng navbat keldi
faqat qoraga...

Kitobga so‘ngso‘z yozgan professor Adhambek Alimbekov ta’kidlaganidek, “Bu qisqa ignabarg she’rlarda muallif ko‘nglida borini qog‘ozga to‘kadi. Falsafiy fikrlarimi, hayotiy tajribadan kelib chiqqan xulosalarimi, qalb qatidagi sezimlarimi, qo‘yingki, o‘ziga munosib ko‘rganni o‘quvchiga ep ko‘radi. Va bu aytimlarini iddaosiz, zo‘riqishsiz do‘stiga dilini yorgandek bitadi”.

BORMI
Sinmagan bir ko‘ngil
Sindirilmagan
bir ko‘ngil bormi?

KAPALAK
Qo‘limga qo‘ngan kapalakdan
hayratdaman
Qanday sig‘mish ulkan
ko‘ngul buning ichiga?

Savolning ifoda tarzidagi samimiylik, shoirning dilidagini yashirmay, balandparvoz ohangda emas, suhbatlashayotgandek aytishi o‘quvchi e’tiborini tortadi.

Temur Xo‘ja bitiklaridagi yana bir jihat – fikrlashga undov. U sahroda qolgan kishi suvga qanchalik ehtiyoj sezsa, insonga ham fikr shunchalar kerakligini qiyoslarda uqtiradi.

She’rlarni o‘zbekchaga mahorat bilan o‘girgan Yo‘ldosh Eshbek so‘zboshisini shunday samimiy tilaklar bilan yakunlagan:

“...Yana 60–70–80-yillar she’riyatimizni o‘girish bilan targ‘ib etishingizni istayman. Chunki bu she’riyat vaqt to‘fonlariga bardosh bera oladigan she’riyatdir. Afsus, buni hali jahon bilmaydi. Lekin bu jahonni durustgina biladi. Yana biznikiga kelishingizni istayman. Butun Amerikani, butun Pokistonni mehmonga aytib kelishingizni istayman, bag‘rimiz keng – bepoyon Turkiston bu.

Kitobingizning muqovalaridagi go‘zal suratlar e’tibori va boshqa ulug‘ zotlar e’tibori ila bir tomchim to‘kildi:

Yuzing
soyasida
nur.

Buni Sizga bag‘ishladim. Zero, sog‘inchning yarmi oydir... Yarim esa-da, to‘la zulmat ichra to‘ladan to‘la, go‘zaldan go‘zalroqdir!”

“Sevgi so‘zlari” dilingizni, yo‘lingizni, uyingizni va o‘yingizni munavvar aylasin, aziz she’riyat va ma’rifat muxlislari.

Abdumurod TILAVOV,
filologiya fanlari nomzodi

ISROF va KAMBAG‘ALLIK

Boshlanishi 1-sahifada.

Shunisiga ham shukr. Lekin nega uyda non ortishi kerak? Qotib qoldi ham, deylik. Axir, uni gazning duxovkasida qizartirib olib, iste’mol qilsangiz, bag‘oyat xushxo‘r bo‘ladi-ku. Hatto, tibbiyot ham shuni tavsiya qiladi. Chunki bunda xamirturushning zararli jihatlari kamayadi-da.

Kuzatsangiz, chiqindiga tashlanayotgan nonning katta qismi buxanka. Chunki sifatsiz mahsulot chiqarilgan: yo ichi xom, yo xamir yetilmay yopilgan.

Bizda g‘alla yetishtirish osonmi? 37 millionli mamlakatga qancha g‘alla kerak? Bunday isrof bilan bu muammoni yechish davlatga va xalqqa qanchalar qimmatga tushayotganini kim hisoblab chiqadi?

Suv, elektr energiyasi va gaz ishlatayotganda hech kimning: “Ishlatayotgan bo‘lsam, pulini to‘lab ishlatyapman-da, birovning bu bilan nima ishi bor?” deyishga aslo haqqi yo‘q.

Chunki... Bu dunyoda hech narsa behisob emas.

ISROFNING BIZDAGI TURLARI

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda Samarqand shahridagi bir nikoh to‘yida bo‘lgan manzaraning videosi tarqaldi. To‘yxonaga kirib kelgan kelin-kuyov boshidan shu qadar ko‘p pul sochildiki, bunaqasini dunyoning boydan-boy davlati Amerika Qo‘shma Shtatlarida ham hech kim ko‘rmagan bo‘lsa kerak.

Xo‘sh, pul sochganlar bu bilan nimani isbotlamoqchi bo‘lishdi? Nima, bu pul sochish kelin-kuyovning kelajagini ta’minlab beradimi?

Pul sochganlar buning o‘rniga muhtojlarga himmat ko‘rsatib, ularning og‘irini yengil qilganida edi... Bir qo‘lning berganini ikkinchi qo‘l bilmasa edi... Aslida insonlar mehnati evaziga qo‘lga kiradigan pulni bunday xor qilib sochish ham isrofning bir bema’ni turi emasmi?!

To‘g‘ri, millatimizda nikoh to‘yida kelin-kuyov, sunnat to‘yida to‘ybola boshidan tanga sochish an’anasi bo‘lgan. Masalan, o‘tgan asrning 60–70-yillarida bobo-bibilarimiz sariq tangalarni, ya’ni 1, 2, 3 va 5 tiyinlik chaqalarni yaxshi niyat bilan yig‘ib qo‘yishar, to‘ylarda sochishar edi. Lekin ularning barini jamlab kelsangiz, bir so‘m bo‘lmas edi-da. Albatta, rizqi farog‘, hayoti to‘kin bo‘lsin, degan irim yotgan buning zamirida.

Ijtimoiy tarmoqlarda bir mashhur boy tuflisining ipini boshqa kishiga bog‘latayotgani tasviri ham tarqab ketdi. Axir, dunyoning manaman degan davlatlari rahbarlari ham shunday qilmasa kerak?! Bu nimaning alomati? Mohiyatan har bir odam jamiyatdagi boshqa ne’matlar singari obro‘-e’tiborini ham isrof qilmay yashashi kerak emasmi?! Ortiqcha hasham va dabdababozlikka sarflanayotgan mablag‘lar, ehtimol, qandaydir ma’noda obro‘ isrofi hamdir.

TO‘Y-HASHAM VA ISROF

To‘y-hashamlarimiz jamiyatda nosog‘lom musobaqaga aylanib ketyapti. Dabdabali to‘y-hashamlar bunga qurbi yetmaydigan or-nomusli kishilarni ruhan og‘ir ahvolga solib qo‘yyapti.

To‘g‘ri, hamma zamonda ham bir toifa kishilar qo‘lida ehtiyojlaridan ortiq mablag‘ to‘planib boradi. Qonuniy yo‘l bilan topsa, haloli bo‘lsin – hech kim bunga qarshi emas. Ammo aynan shu boylik to‘y-hashamlarni dabdabali o‘tkazishga sabab bo‘lyapti. Axir, xalqimizning azaliy an’analarida xayr-ehson qilish, mehr-muruvvat ko‘rsatish, muhtojlarga, beva-bechoralarga yordam berish, ularning turarjoylarini obod qilish, el-ulusga xizmat ko‘rsatadigan yo‘llar, ko‘priklar qurish, sarmoyani ishlab chiqarishga sarflab, yangi ish o‘rinlari yaratish, shu tariqa el-yurt o‘rtasida haqiqiy obro‘-e’tibor orttirish ham mumkin-ku.

Xalqning to‘y-ma’rakalarga haddan tashqari berilib ketishi, hatto, ko‘pchilik buni ongli hayotining asl mazmuni darajasida bilib, topgan-tutganining katta qismini shunga sarf etishi isrofdan boshqa narsa emas.

NAVOIY NAZDIDA...

Saxiylik hammaga ma’lumki, xasislik illatining aksi, aniqrog‘i, kishining o‘zida borini birovdan ayamasligiga asoslangan fazilat. To‘y ham aslida, saxiylikdan kelib chiqqan tadbir.

Hazrat Alisher Navoiy nazdida saxovat Allohga shukronalik belgisi. Ammo u shunday nozik narsaki, kishi hushyor bo‘lmasa, saxiylik deb qilgan a’moli baxillik hisobiga o‘tib ketishi hech gap emas:

Necha saxo ashrafi avsofdur,
Mufti agar aylasang, isrofdur.

Aqlki, ta’rif etar avsofni,
Buxl bila teng tutar isrofni.

Inson ixtiyoridagi boyliklarini pala-partish sarflasa, isrofga yo‘l qo‘ygan bo‘ladi. Buyuk mutafakkir, agar kimki nom qozonish uchungina gavhar sochayotgan bo‘lsa, undan baxillik



yaxshiroq, deb hisoblaydi. Chunki baxilning qo‘lidagi boylikdan hali boshqalarga foydasi tegishini umid qilsa bo‘ladi. Isrof etilgan boylik esa havoga sovriladi. Xazinang eshigini och, boyliklaringni olib soch-u, lekin o‘z o‘rnida soch, deydi shoir.

Demak, o‘sha Navoiylar zamonida ham dabdababozlik, shuhratparastlik, ta’magirlik, kimo‘zarga, ya’ni nom chiqarish uchun isrofgarchilikka yo‘l qo‘yish kabi illatlar bo‘lgan va shoir bularni qoralagan.

KIMLAR ISROFGA UNDAYAPTI?

To‘y-hasham, ma’raka-marosimlarimizning tobora odamlar yelkasiga ko‘tarib bo‘lmas yuk bo‘lib tushayotgani balki bejiz emasdir.

Har qanday jamiyatda, jumladan, bozor iqtisodiyoti amalda bo‘lgan mamlakatda ham tarif, ya’ni qandaydir narx-navoning umumiy mezonlari shakllangan bo‘ladi. Masalan, hozirgi paytda dotsent yoki professorning 40 daqiqalik bir soat darsiga qancha haq to‘lash hukumat tarafidan qat’iy qilib belgilangan.

Xo‘sh, xonandaning to‘ydagi 40 daqiqalik xizmati haqini kim belgilaydi? Ochig‘i, xonandaning “birrov”ga kelib-ketishi uchun ming dollardan yuqori haq to‘lash qayoqdan chiqqan? Bir jamiyatda mehnatga haq to‘lash bobida nega yer bilan osmoncha farq bo‘lishi kerak? Bunga kim aybdor? Buning ustiga, nima asosga ko‘ra, san’atkorga ham to‘ychi tarafidan katta haq to‘lanishi, ham yana to‘yda qatnashayotganlar ularga pul qistirishi kerak? Kayf ustida xonanda yo raqqosaga pul qistirayotgan anavi amaki umrida bolasiga bittagina kitob olib berganmikan? Axir, bu hammamiz ko‘zlarimiz bilan ko‘rib turgan ochiq-oshkor isrof emasmi? Eng yomoni, kambag‘allar boyga pul qistiradi. Teskarisi bo‘lishi kerak emasmi?

Bular milliy ma’naviy yaralarimiz. Afsus, hammamiz ko‘rib turamiz-u, malham surkamaymiz...

Rasmiy konsertlarni qarang, dunyo bo‘yicha bir mezon shuki, raqqosa bir konsertda, nari borsa, ikki-uch marta chiqadi, xolos. Bir raqqosa to‘yda ikki-uch soatlab raqsga tushganidan keyin san’atning san’atligi qoladimi?

Bir yevropalik mehmon to‘ylarimizdan birida ishtirok etibdi. Odamlar raqqosani o‘zlariga imlab, unga aroq quyib berib, ichishini iltimos qilishar, evaziga unga pul qistirishar, u esa olgan puli evaziga shu odamga qarab jilpanglar ekan. Afsuski, yevropalik mehmon buni, o‘ta ketgan madaniyatsizlik, hatto, insonning inson tarafidan tahqirlanishi, deb hisoblabdi. Ular buni, umrning isrofi, deb biladi.

Bir ertalabki oshga xorijlik mehmonimni ham olib bordim. Mashinani qo‘yishga zo‘rg‘a joy topdik.

– Mamlakatingiz hali-beri boyib ketadiganga o‘xshamaydi, – dedi u qaytayotganimizda kutilmaganda.

– Nega? – dedim o‘zimni bilmaslikka olib.

– Birinchidan, bunday shohona osh berish to‘ychining belini sindiradi, chunki shu xarajatiga u o‘g‘liga bir yangi biznes ochib berishi mumkin edi. Ikkinchidan, kelgan mehmonlarning mashinasiga sarflangan yonilg‘ining puli oshga ketgan mablag‘dan ko‘p bo‘lsa ko‘pki, kam emas, bu ham katta isrof.

To‘y-ma’rakalarni ixchamlashtirish borasida bundan bir asr burun Buxoroning so‘nggi amiri Said Olimxon qattiq farmon chiqargani, jadid bobolarimiz bu borada qancha meros qoldirgani, sho‘ro davrida ham bu borada katta kurash olib borilgani, mustaqillik yillarida bu bo‘yicha ko‘plab qonunosti hujjatlari – farmon va qarorlar qabul qilingani, komissiyalar tuzilgani, ammo foydasi kam bo‘layotganini aytib o‘tirmadim.

To‘y-hashamlarimizning serxarajat bo‘lishidan manfaatdor kuchlar bor. Ular o‘z xizmatini pullash uchun to‘ychini unga-bunga undayveradi. Yangi-yangi qiliqlar o‘ylab topiladi.

TOMORQALAR ISROFI

Kamina tug‘ilib o‘sgan Buxoroning Vobkent tumanidagi Qirg‘izon qishlog‘ida 50 yil burun 70 tacha hovli bor edi. Qishloq atrofida jamoa xo‘jaligining 70 gektardan ortiqroq ekin maydoni bo‘lardi. Aholi ko‘paya bordi, oilalarga uy-joy uchun yer ajratildi. Hozir qishloq uch baravarlar kengaygan. Tabiiyki, ekin maydonlarining qariyb yarmi uy-joylarga aylangan. Tomorqalar ham aslida, unumli ekin maydoni. Biroq mamlakatimizning hamma qishloqlarida ham tomorqadan unumli foydalanilyaptimi?

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bahorda Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumanida tomorqalarning aksariyatida beda bilan makkajo‘xoridan boshqa narsa ekilmayotganini ko‘rib, shunday qimmatdan-qimmat yerlar isrof bo‘layotganini afsus bilan qayd etdilar.

Yoki shahardagi hovlilarni oling. Oldinlari shahar hovlilarida ham o‘rik, olma, nok, anjir, shaftoli, ayniqsa, uzum yetishtirilgan. Hozir aksar shahar hovlilari chiroyli dizayn bilan ko‘kalamzorlashtirilgan, xolos. Albatta, uy sohibini hech kim mevali daraxt ekishga majbur qila olmaydi. Lekin mamlakatimizning umumiy iqtisodiy ahvoli shahar hovlisidagi tap-tayyor maydoncha tugul, bir qarich yerga ham foydali mahsulot yetishtirish payidan bo‘lishni taqozo etmaydimi? Axir, har qarichi oltinga teng yerni isrof qilmasligimiz kerak-ku. Tog‘li o‘lka bo‘lgan Pokistonda odamlar yelkalarida qoplarda tog‘larga tuproq tashib chiqib, ko‘zalarda suv olib borib sug‘orib, bir necha tup pomidor, bodring yoki bulg‘ari ekishar ekan...

Atrof-muhit bo‘yicha BMT dasturi (YUNEP) mutaxassislarining hisob-kitobiga ko‘ra, bugungi kunda har bir odam yiliga o‘rtacha 71 kilogramgacha oziq-ovqat mahsulotini tashlab yuboradi. Bu dunyo bo‘yicha har kuni 1 milliard porsiya ovqat isrof bo‘layotganini anglatadi. Boshqacha aytganda, har yili 1 milliard 500 million tonna oziq-ovqat mahsulotlari chiqitga tashlab yuboriladi. Bu esa bir yilda ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlarining 19 foizini tashkil etmoqda. Buning 60 foizi xonadonlar, 28 foizi umumiy ovqatlanish muassasalari, 12 foizi chakana savdo korxonalari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Bu bilan, birinchidan, isrofga yo‘l qo‘yyapmiz, ikkinchidan, atrof-muhitga zarar yetkazyapmiz. Chunki bu mahsulotlarning aksariyat qismi chirish jarayonida o‘zidan zararli metan gazi chiqaradi, shu tariqa bu Yer yuzida iqlim o‘zgarishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

ENG KATTA BOYLIGIMIZ: QUYOSH, EKIN YERLARI VA SUV

Keling, bu mulohazalardan biroz chekinib, sal “past”roqqa tushaylik. Sergeli tumanining Quruvchi mahallasidagi ko‘chalardan birida suv quvuri teshilib, ikki haftacha yo‘lga suv toshib turdi. Hozir, bilasiz, hovlisidagi bog‘chasini kechasi soat 24 dan oldin sug‘organga, avtomobilini shlang bilan suv sepib yuvganga otning kallasiday jarima belgilangan. Chunki yurtimizda odam soni ortgani sari ichimlik suvi zaxiralari kamayib ketyapti. Bundan bu yog‘i oltindan qimmat bu ne’matni tejab-tergab foydalanishga majburmiz. U holda, nega tuman suv ta’minoti tashkiloti quvurni o‘z vaqtida ta’mirlamadi?

Quvurni ta’mirlamagan ustalar 2022-yil boshidan Sergeli tumaniga Toshkent viloyatining Zangiota tumanidan katta bir hudud qo‘shilgani, shu sababli ish ko‘lami ko‘payib ketgani, ammo suv tashkilotining shtatlari kengaytirilmagani va moddiy-texnika bazasi kuchaytirilmaganini sabab qilib ko‘rsatishdi.

Aslida isrofning oldini olish bir-ikki yoki uch-to‘rt kishininggina ishi emas, balki bu umummilliy, ya’ni mamlakat miqyosidagi global masala.

KO‘RPAGA QARAB OYOQ UZATISH MOHIYATI

Iqtisodiy jihatdan hali dunyoning rivojlangan mamlakatlariga yetib olishimizga ancha bor. O‘tgan yili yalpi ichki mahsulotimizning jon boshiga taqsimoti 2 ming 676 AQSh dollari miqdorida bo‘ldi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xalq va davlat oldiga 2030-yilga borib bu ko‘rsatkichni 4 ming dollarga yetkazish vazifasini qo‘ydilar. Shu maqsadga erishsak, 6 yildan keyin hozirgi Eronning iqtisodiy darajasiga yetishamiz.

Lekin bu ko‘rsatkich AQShda 81 ming 695, Kanadada 53 ming 371, Yaponiyada 33 ming 834, Germaniyada 55 ming, Fransiyada 44 ming 477, Buyuk Britaniyada 48 ming 866, Italiyada 38 ming 373, Singapurda 84 ming 734, Isroilda 52 ming 261, Birlashgan Arab Amirliklarida 45 ming 321, Rossiyada 13 ming 138, Turkiyada 12 ming 985, Qozog‘istonda 13 ming 136, Turkmanistonda 9 ming 190, Gruziyada 8 ming 120, Armanistonda 8 ming 715, Xitoyda 12 ming 614, Ozarbayjonda 7 ming 155 dollar-da...

Rivojlangan davlatlar aynan isrofning oldini olib, mehnat-mashaqqat bilan topilgan har qanday mablag‘ini aql-idrok, tartib-qoida, me’yor bilan sarflab, ana shunday sekin-astalik bilan yillar mobaynida orttirilgan boylikni ishlab chiqarishga, ilm-fan rivojiga, odamning aqliy salohiyati, ilm-ma’rifati, texnika-texnologiyaga sarflab, imkon qadar qo‘l mehnatini kamaytira borishgach, ana shunday yuksak turmush farovonligiga erishgan.

Shunday ekan, xalq sifatida bugun biz, hatto, bir so‘mimizni ham o‘ylab, foydali, ko‘payadigan maqsadlarda sarflashni o‘rganishimiz kerak. Ammo bu borada hali ko‘p-ko‘p xatoliklarga yo‘l qo‘yayotganimiz hech kimga sir emas. Hozir bularning hammasini bir-biri sanashning imkoni yo‘q.

Isrofning kattasi – vaqtni bekor ketkazish. “Bekorchidan Xudo bezor”, degan maqolimiz ham bejiz yaratilmagan. Chunki mehnat-mashaqqat, ya’ni ko‘p vaqt sarflab yetishtirilgan mahsulotlar nobud bo‘layotgani, inson quvvati, umri bekor ketayotgani uchun isrofga qarshi turiladi. Biroq qanchadan-qancha vaqtimizni behudaga sarflayotganimizni kim hisoblab boryapti? Shunday yutqiziqlarimizni pulga chaqsak, qancha bo‘lar ekan? Bu ketishda qachon rivojlangan davlatlarga yetib olamiz?

Iqtisodchilarning hisob-kitobiga ko‘ra, mamlakatimizda bir yangi ish o‘rnini tashkil qilish uchun o‘rtacha 10 ming dollar kerak. Vaziyatimiz shundayki, ana shu 10 ming dollar to‘plagan har bir boy isrofning oldini olib, pulini yangi ish o‘rinlari yaratishga sarflashi lozim. Bu xayriya emas. Tashkil etgan ana shu yangi ish o‘rni ham o‘ziga qo‘shimcha mablag‘ keltiradi, ham bir fuqaroni ish bilan ta’minlaydi.

Biz islohotlar davrida yashayapmiz. Maqsad – O‘zbekistonimizni rivojlangan mamlakatlar safiga qo‘shish, yuksak darajadagi turmush farovonligiga erishish. Bu borada qanchadan-qancha to‘siqlarni yengishimizga to‘g‘ri keladi.

ISROF QILMASLIK UCHUN HAM ILM KERAK!

Kechagina dunyo aholisi 4 milliard kishidan iborat edi. Yarim asrda ikki karra ko‘payib, 8 milliardga yetdik. Maqolda qoyilmaqom qilib aytilganidek: “Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv”. Lekin inson iste’moli uchun zarur resurslar o‘z-o‘zidan ko‘payavermaydi-ku. Shunday ekan, odamzod hamma narsani tejab-tergab ishlatishga majbur. Bu esa har bir qadamni o‘ylab bosishga, hech narsani isrof qilmaslikka, buning uchun har qanday masalani ilman puxta-pishiq holda bajarishga undaydi.

Xullas, sivilizatsiya hamma narsada isrofga chek qo‘yib, iqtisodiy jihatdan har taraflama yutishga, ya’ni har qanday mehnatga sarflanadigan vaqtni qisqartirishga chorlaydi. Masalan, bugun zamonaviy hayotimizni bir jo‘mrakni burasak, sovuq, ikkinchisini burasak, issiq suv oqib turishisiz tasavvur qila olmaymiz. Ana shunda bir jiddiy masala o‘rtaga tushadi: qaysi qo‘l bilan qaysi suv oqadigan jo‘mrakni burasak, isrofning oldini olgan, ya’ni vaqtdan yutgan bo‘lamiz?

Bu shunchaki masala emas. Har kuni nimagadir bir soniyadan ortiqcha vaqt sarflasangiz, bir yilda jami 365/66 soniya yo‘qotasiz. Bu bir yilda 6 daqiqadan ko‘proq bo‘ladi. Dunyoda o‘rtacha yoshni 75 yil deb hisoblasak, bir kishi bir kunda ana shu bir soniyadan yo‘qotgani evaziga umrining 457 daqiqasini, ya’ni 8 soatini isrof qilgan bo‘ladi. Endi bor-yo‘g‘i ana shu bekor ketgan bir soniya tufayli 8 milliard odamning bir ish kuni hech narsa yaratmasligidan kelib chiqadigan ulkan zararni ko‘z oldimizga keltiraylik.

Xo‘sh, sovuq suvni qaysi, issiq suvni qaysi qo‘l bilan burab ochgan samaraliroq? Bu masala dunyoda allaqachon eng oqilona tarzda hal qilingan. Bunda olimlar ikki masaladan kelib chiqishgan. Birinchisi, sovuq suv ko‘p ishlatiladimi yoki issiq suvmi? Tabiiyki, sovuq suv. Ikkinchisi, o‘ng qo‘lni ishlatish qulaymi yoki chap qo‘lni? Jami odamlarning 85 foizi o‘ngaqay, 15 foizi chapaqay. Demak, sovuq suv o‘ng, issiq suv chap qo‘l bilan ochilsa, odamzod vaqtdan yutadi.

Bugun butun dunyo ilmiy asoslangan shu xulosaga amal qiladi. Bizda esa... Keling, Buxoroyi sharifning manaman degan mehmonxonasidagi bir mojaroni aytib beray. Yurtimizga Germaniyadan kelgan bir ziyoratchi soqol olmoqchi bo‘lib, chap qo‘liga mos tarafdagi buragichni burasa, hadeganda issiq suv kelavermabdi. Odatda quvurda to‘lib turgan issiq suv biroz sovib qoladi. Sal-pal oqizib yuborsangiz, issiq suv keladi. Bu gal esa hech issiq suv kelmas, qaytanga, suv sovugandan sovib borar emish. Oxiri mehmonxona ma’muriyatiga qo‘ng‘iroq qilib, shikoyatini aytibdi.

– Bizda har doim issiq bo‘ladi. Nega bunday deyapsiz? Hozir mutaxassis yuboramiz, – debdi ma’muriyat xodimi.

Mutaxassis kelib, buragichni chapga burasa, haqiqatan sovuq suv oqayotgan emish. O‘ngga burasa, issiq suv oqibdi.

– Esiz, esiz! – debdi nemis. – Shunday zamonaviy mehmonxona qurishni o‘rganibsizlar-u, butun dunyoda issiq suv chap qo‘lga qulay tarafdagi buragich orqali ochilishini o‘rganmabsizlar-da. Axir, mening o‘zim qancha toza ichimlik suvini bekordan-bekorga oqizib yubordim. Menga o‘xshaganlar adashib, qanchadan-qancha suvni isrof qilyapti-ku!

Siz: “Faqat bir mehmonxonaning bir xonasida ustalar adashib, issiq suvni o‘ng qo‘l buragichga moslab montaj qilib ketibdi-da, shunga shuncha otago‘ri – qozixonami?” deb o‘ylamang. Yangi qurilib, foydalanishga topshirilgan uylar, mehmonxonalar, ishxonalarga kirib, bir tekshirib ko‘ring. Hammasida shu pala-partishlik. Yangi ko‘chib kirgan kishi endi suv ulangan nuqtalarning qay birida qaysi suv qaysi qo‘l tarafdan ochilishini bir-bir yodlab chiqishi kerak. Aslida, shuning o‘zi qanchalar ortiqcha vaqt va kuch talab qiladi. Bunga ham chidasa bo‘lar, lekin ana shu adashishlar orqali bekor oqib ketgan suvimizni qanday qaytaramiz?

MAS’ULIYAT

Agar O‘zbekistonimiz taraqqiy topishi, bu zaminda hayot abadiy davom etishi, ya’ni bizdan keyin ham abadul-abad bu muqaddas zaminda avlodlarimizning emin-erkin yashashini istasak, bugun hech bir ne’matni isrof qilmaslik, ulardan tejab-tergab, oqilona foydalanishni odat tusiga kiritishimiz zarur va shart. Xullas, isrof – bu dunyoda ham, u dunyoda ham jazosi tayin bo‘lgan bir jinoyat.

Sultonmurod OLIM,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

JADIDLAR

ISMOILBEK G‘ASPRALI FENOMENI



Insondan dunyoda yaxshi nom, ezgu amallar meros qoladi. Bu dunyoda odamlarning moddiy va ma’naviy jihatdan baxt-saodatli hayoti uchun o‘z fikri, mol-dunyosi va joni bilan xizmat qilgan fidoyi shaxslarning xayrli ishlari har doim yaxshilik bilan esga olinadi. Bugun vafotiga bir yuz o‘n yil to‘lgan Ismoilbek G‘aspralini yodga olganda, shu donishmand jadid allomaning tarix oldida naqadar ulkan ishlarni bajargani xayoldan kechadi. Zero, o‘z amaliy faoliyati uchun “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan muhtasham orzuni shior qilib olgan adibning turkiy olamga tarqatgan ziyosi, bebaho fikrlari, jadidona teran qarashlari barchaning yuragidan birdek o‘rin olgan edi.

Bog‘chasaroy farzandi Ismoilbek G‘asprali dorilfanodan dorilbaqoga rixlat qilganida, tabiiyki, shogirdlari qalbini cheksiz qayg‘u egalladi. Taniqli tatar ulamosi Rizouddin Faxriddin o‘zining “Sho‘ro” jurnalida: “Millatga, xalq va jamoatga xizmat etuvchilar ehtimol har vaqt bo‘lib kelgandir, biri ilm birla xizmat etgan bo‘lsa, ehtimolki ikkinchilari mollari va aqllari birla yordam etgandirlar. Lekin Ismoilbekning xizmati barokotli va juda foydali bo‘ldi. Ismoilbek bu millat uchun xayrli va nazirsiz bir xodim edi”, deb yozar ekan, G‘asprali faoliyatiga umumiy nazar tashlaydi. Ayni damda Ismoilbek umrining oxirgi lahzalari to‘g‘risida bir qancha qimmatli ma’lumotlar keltiradi. Ma’lum bo‘lishicha, Ismoilbek 1914-yil 9-sentyabr kuni o‘z avlodlarini, yaqinlarini yoniga chaqirib: “So‘ylayajak so‘zlarimga diqqat etingiz, holim og‘ir, buning natijasi ushbu kunlarda anglashiladi, madomiki, tug‘ildikmi, bir kun, albatta, o‘lajakmiz, so‘zlarimdan mutaassir bo‘lmangiz, tug‘ilish tabiiy bo‘lg‘oni kabi, o‘lmak-da tabiiydir”, degan mazmunda so‘zlab, bir qancha vasiyatlar qiladi.

1914-yil 10-sentyabr kuni kechga borib, bemorning yuzi qibla tomonga burib qo‘yiladi. U ertalabgacha shu zaylda yotadi va soat sakkizlarda jon taslim etadi. Ertasi – juma kuni janozasi o‘qiladi. Unda besh-olti ming kishi qatnashadi.

O‘zbek jadidlarining rahnamosi Mahmudxo‘ja Behbudiydek yetakchi ziyolilar ham Ismoilbekni o‘zlari uchun ustoz, yo‘lboshchi va maslakdosh sanagan. G‘asprali vafoti munosabati bilan turkiy dunyoning turli burchaklaridan afsus-nadomat, yig‘i-yo‘qlov tovushlari eshitildi. Marhumning yaqinlariga – Bog‘chasaroyga ta’ziya maktublari, telegram xabarlari tinimsiz borib turadi. Bu xususda dunyoning ko‘plab gazeta va jurnallari, xususan, tatar matbuotida bosilgan ma’lumotlarning son-sanog‘iga yetib bo‘lmaydi. Bu gapda mubolag‘a yo‘q. Chunki birgina o‘zbek matbuotida 1914-yilning sentyabridan noyabrigacha bo‘lgan, bor-yo‘g‘i ikki oy muddat davomida G‘aspraliga bag‘ishlangan o‘nlab asarlar e’lon qilindi. Bu adabiy, ilmiy, ijtimoiy ruhdagi manbalarni shartli ravishda “Marsiya-she’rlar”, “Publitsistik maqolalar va xabarlar” tarzida tasniflash mumkin.

Turkistonlik jadidlar G‘aspralini dastlab “Tarjimon” gazetasi munosabati bilan yodga oladi. Samarqandlik shoir Siddiqiy Ajziyning Orenburgda chiqqan mashhur “Sho‘ro” jurnalida 1913-yili bosilgan “Tashakkur va rijo” nomli she’rida millat ziyolilari – “anvori ittifoq, taraqqiy ziyolari”ning xizmatlari ulug‘lanadi. “Yulduz”, “Ulfat”, “Taraqqiy” kabi matbuot nashrlari tilga olinadi. Muallif unda “Tarjimon” tufayli odamlar dunyo bilan oshno tutingani hamda fanniy tomoniga urg‘u berib: “Hal etdi mushkuloti fununning bayon ila”, degan misralarni yozgan edi.

Toshkentlik shoir Karimbek Kamiyning “Mo‘tabar “Tarjimon” va Ismoilbek G‘asprali janoblari haqqinda” sarlavhali she’ri “Oyina” jurnalining 1914-yil 19-fevral sonida bosiladi. G‘aspralishunos Zaynobiddin Abdurashidov ma’lumotiga ko‘ra, ushbu she’rni Kamiy 1898-yili yozgan va “Tarjimon”ga yuborgan. G‘aspralining “Toshkandlik shoir Kamiyga” javob maqolasi (“Tarjimon” 1898. №41) da aytilishicha, muharrir o‘zlariga tegishli bo‘lgan bu maqtov she’rni gazetada berishga istihola qiladi. G‘asprali vafotidan ancha avval yozilgan bu she’rda “cho‘q raso, fikri fasih” deb gazeta muharriri sifatlansa, “Tarjimon”ning o‘zida esa turfa xil xabarlar, ilm-fan, “odob-u maosh”ga doir nasihatlar, hatto insonni shod-u xurram qiladigan latifalar chop etilishi she’riy yo‘sinda ta’kidlanadi:

“Har hurufi gul kabi,
har nuqtasi g‘uncha misol,
Xush tomosha istayanlarg‘a
guliston “Tarjimon”.

“Tarjimon” va gazeta muharririni shu zaylda gul-u gulistonga qiyoslagan Karimbek Kamiy u zot vafotiga bag‘ishlab “Haqoyiqi ogoh, maorifi dastgoh, ustozi zamon, sohibi “Tarjimon” janobi Ismoilbek hazratlarining ruhi purfutuhlarina ittihof” deb nomlangan, uzun sarlavhali marsiyani yozadi. Zero, shoirning G‘aspraliga munosabati sarlavhadayoq aks etgani aniq: ko‘pchilikning ustozi, haqiqatga oshno, maorifparvar; so‘ngra matnda “fardi zamon” ekani aytiladi.

“Jumlayi islom elig‘a rahbar-u
ustoz edi,
Barcha shogirdonina erdi
atodek mehribon.

Erdi ul zoti mukarram
din-u millatga panoh,
Erdi ul zoti muazzam
maqtadoyi mo‘minon”.

Kamiy fikricha, u zotning bunday go‘zal sifatlari – “madhu avsofi”ni juda ko‘p keltirish mumkin. Musulmonlar boshiga kelgan bu katta musibatni yengil ham sanab bo‘lmaydi, ya’ni “Jumlai islom elig‘a bu musibatdur kalon”.

Ta’kidlash kerakki, G‘asprali vafotiga bag‘ishlab marsiya-ta’ziyanoma ruhida yozilgan she’rlarda shoirlarning odamlarga, millat ahliga, musulmonlar jamoasiga murojaat uslubi kuzatiladi.

Buxorolik Sadriddin Ayniy o‘z she’rida ustozidan, ya’ni “Ruhi avlodan judo, nuri musaffodan judo” bo‘lganidan faryod qiladi:

“So‘ylading, yozding,
cholishding hech ma’yus o‘lmading
Yurt-u yer vayronaya do‘nmishdi
obod aylading”.

Ismoilbekning beqiyos xizmatlaridan biri vayronalarni obod qilganidir. Umuman, bag‘ishlovlardan tazod san’atidan, ya’ni zulmatni oydinlatgani, vayronani obod etgani kabi ifodalar ko‘p ko‘zga tashlanadi.

Yuqoridagi she’rlarda bayon etilgan yurak dardlariga hamohanglik andijonlik 16 yoshli talaba Hamidiyning “Ma’rifatparvar bobomiz Ismoil G‘asprali hazratlari haqqinda ta’ziyanomamiz”, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Marsiya”, Abdulla Avloniyning “Adibi shahir Ismoilbek ruhina”, samarqandlik shoir Faxriddin Rojiyning “Ismoilbek hazratlarig‘a”, Vasliy Samarqandiyning tojik tilida yozilgan qator she’rlarida ham o‘z ifodasini topgan edi.

Ismoilbek G‘asprali vafotiga bag‘ishlangan publitsistik ruhda yozilgan adabiy maqolalar ham mualliflarning tuyg‘ulari, mahzun kayfiyati va ayriliqning hayajonli nadomatlari bilan yo‘g‘rilgandir.

Hamza Hakimzoda Niyoziy ayni mavzudagi “Yavmul vafot” maqolasida Ismoilbekni: “O‘zini inson ekanligin haqiqiy ko‘z bilan ko‘rgandan beri butun Rusiya musulmonlari orasida maorif dengizini oqizmoq va toshzorlarni sabzazor etmoq murodida qarshidagi “sadd” bo‘lgan ba’zi nifoq, g‘aflat va jaholat kabi hisobsiz tizilgan eng zo‘r katta tog‘larni yolg‘iz o‘zi Farhod kabi ijtihod va g‘ayrat teshasi bilan buzib tekis qilg‘on zot-da bu marhum va mag‘fur Ismoilbek hazratlari edi”, deya ulug‘ladi.

Bulardan tashqari, o‘zbek davriy matbuoti “A.A.Z” (Ashurali Zohiriy)ning “Marhum Ismoilbek qandog‘ ishlar qilgan?”, “K.A.” imzoli muallifning “Ismoilbek kim edi?”, “Q.Sh.S.” imzosi bilan karkilik muallifning “Ulug‘ bobom qayg‘usi” nomli maqolalari bosiladi.


Ta’ziya kunlarida “Tarjimon”da dunyoning to‘rt tarafidan kelgan hamdardliklar “Ta’ziya telegraflari” ruknida berib boriladi. Ular orasida Behbudiy Samarqanddan: “Kadaringiza ishtirok ediyorim. Janobi Haqdan sabr va tahlil niyoz ediyorim”, deb yuborgan qisqa xabari bor.

Xullas, o‘zbek matbuotida she’rlar va publitsistik maqolalarda ham, Bog‘chasaroyga yo‘llangan qisqa satrli ta’ziya maktublarida ham Ismoilbek G‘asprali fenomeni, xizmatlarining qadri, yuksak insoniy fazilatlari takror va takror yodga olinadi. Zero, bu “xodimul millat” shunday hurmat-ehtiromga munosib, betakror tafakkurga ega, bir necha yuz yillarda bir marta dunyoga keladigan dono, fidoyi va mo‘tabar shaxslar qatorida turishga ma’nan haqlidir. O‘zbek jadidlari Ismoilbekni samimiyat bilan eslashdi, bag‘ishlovlarini chin yurakdan juda ta’sirli uslubda yozishdi. Aslida, G‘asprali o‘giticha, ijod ahli qalamini ikki pullik quruq siyohdonga botirib emas, balki yuragiga botirib, yurak qoni bilan yozishi lozim, shunda boshqalarning vijdoniga yetib boradi. “Xalq birla aralashuvingiz shu ravishda bo‘lsinki, oralarida turgan vaqtingizda ular sizni sevsinlar va ayrilgandan so‘ng siz uchun yig‘lasinlar” – Ismoil G‘aspralining bu hikmati, anglami, falsafiy fikri o‘z hayot yo‘liga ham, bir yuz o‘n yil avval voqe bo‘lgan ayriliq onlariga ham birdek taalluqlidir. Zero, biz bugun Ismoilbek G‘aspralidan qolgan adabiy merosni hijjalab o‘qib, ezgu g‘oyalarini, bebaho orzularini chuqur anglashimiz va, albatta, xotirasini yodga olishimiz lozim.

Bahodir KARIM,
filologiya fanlari doktori,
professor



FIKR



AFANDI KIMGA XIZMAT QILGAN?

Nasriddin Afandi haqidagi hikoya, rivoyat, multfilm yoki kinoni qo‘ya turing, hatto uning ismini eshitganimizda ham barchamizning yuzimizda tabassum, ruhiyatimizda iliqlik paydo bo‘ladi. Uning sarguzashtlari va ko‘rgan-kechirganlari haqidagi afsonalar xalqimizning qalbi to‘ridan joy olgan. Afandi obrazi nafaqat o‘zbeklar, balki qo‘shni va qardosh xalqlar, forslar, arablar folklorida ham uchraydi. Shu sababli Afandi haqidagi latifalar YUNESKOning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Afandi obrazi Markaziy Osiyo, O‘rta va Yaqin Sharq xalqlari folkloriga kirganidan to bugungi kungacha asosan u og‘ir vaziyatlardan oson chiqa oladigan aqlli, zukko kishi sifatida, oddiy xalq xizmatida yuruvchi, zulmdan qiynalgan xalqning dardiga darmon bo‘luvchi, yetimlarning haqi uchun kurashuvchi obrazlarda gavdalanadi.

Biz bu maqolamiz Afandi haqidagi latifalar bilan ulg‘aygan avlod va u haqida asar yaratgan ijodkorlarning dilini xira qilishini istamaymiz. Faqatgina Afandiniki deya iddao qilingan aksariyat latifalardan sho‘rolar davrida qay maqsadda foydalanishgani hamda ushbu holatning bugungi asoratlari haqida so‘z yuritmoqchimiz.

NASRIDDIN AFANDI TARIXIY SHAXSMI?

Nasriddin Afandi latifalari asosida uning tarixiy shaxs yoki to‘qima obraz ekanligini aniqlash yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari bir-birini inkor qiladi. Ayrim olimlar “Nasriddin Afandi to‘qima obraz”, deyishadi. Yana bir guruh olimlar esa “Nosiriddin Tusiy mazkur obrazning prototipidir”, degan fikrni ilgari surishadi. Boshqa kishilar esa obraz hayotdagi real shaxs – 1206–1284-yillarda Kichik Osiyo (Turkiya)da yashagan Nasriddin Xo‘ja ekanligini ta’kidlashadi. Shu o‘rinda ayni so‘nggi qarash haqiqatga yaqinroq ekanini aksariyat ilm ahli tasdiqlaganini qayd etmoq joiz. Ularning fikriga ko‘ra, Xo‘ja Nasriddin Ko‘niya Saljuqiylari davlati poytaxti bo‘lgan Aqshehir elida tug‘ilgan va madrasa ta’limini olgan. O‘z qishlog‘ida masjidda imom, keyinchalik bir necha shaharlarda qozi lavozimlarida ishlagan. Uning Mavlono Jaloliddin Rumiy bilan ham yaqin bo‘lgani va so‘fiy sifatida ko‘plab shaharlarga borgani to‘g‘risida ma’lumotlar bor.

SOXTA SARGUZASHTLAR

Nasriddin Afandi haqida Mojoristondan Sharqiy Turkistongacha, Janubiy Sibirdan Shimoliy Afrikagacha tarqalgan latifalarga ko‘ra, gohida u donishmand va hozirjavob, gohida aldoqchi va makkor, adolatli qozi yoki so‘fiy sifatida gavdalanadi. Afandi folklor namunalarida baxillar, mutaassiblar, munofiqlar, poraxo‘rlarni masxara qiladi. U so‘zamollik bilan og‘ir vaziyatlardan chiqib keta oladigan hozirjavob kishi sifatida tasvirlanadi.

Mazkur katta jug‘rofiy makonda Afandi latifalari, ayniqsa, bosma nashrlar rivojlanganidan keyin yanada ko‘proq tarqaldi, ommalashdi. Sho‘ro mafkurachilari Afandi obrazi va uning latifalaridan o‘z maqsadi yo‘lida foydalanishga o‘tishdi. Maxsus ssenariylar asosida kinofilm va multfilmlar tayyorlab, ommaviy ravishda xalqqa taqdim qila boshlashdi. Bu orqali mustamlakachilar Turkistondagi xonliklar tuzumini yo‘q qilgani, boylar, yirik yer egalarining mol-mulki tortib olinib, o‘zlari “quloq” qilgani, olim-u ulamolarning qatliom etganini oqlashga harakat qilishdi.

Qolaversa, ular Afandi obrazi oddiy xalqning mahalliy ziyolilarga nisbatan munosabatini sovuqlashtirish, ularni zolim, johil, ikkiyuzlamachi, tovlamachi, poraxo‘r qilib ko‘rsatish va sho‘rolar jamiyatining “adolati”ga urg‘u berishda samarali targ‘ibot quroli bo‘lishini yaxshi anglaganlar. Mafkura targ‘ibotchilari Afandi obrazini Turkistonning zolim xon va amirlari, adolatsiz qozi va vazirlari, muttaham hokim va askarlari, laqma va dangasa yer egalari hamda boylaridan aziyat chekkan yo‘qsillarning vakili, ularning himoyachisiga aylantirishga intildilar.

Afandi sarguzashtlari asosida tayyorlangan bir nechta kino va multfilm 1943-yildan boshlab to sobiq Ittifoq tanazzulga yuz tutgunicha uning hududidagi kinoteatrlarda, telekanallarda muntazam namoyish qilingan. Shu tariqa o‘tmishda xalq xizmatida bo‘lgan davlat amaldorlarning “adolatsiz, johil, xotinboz, laqma, mutaassib, ochko‘z”, bo‘lganligi haqidagi soxta qarashlar zimdan xalq ongiga singdirildi. Natijada millatga xizmat qilgan xon-u amirlarga, vazir-u ulamolarga, umuman nisbatan salbiy munosabat shakllandi. Albatta, biz ularning barchasi oppoq bo‘lgan, degan fikrdan yiroqmiz. Lekin aynan mana shunday vizual targ‘ibot vositalari orqali yurtdoshlarimiz ko‘nglida ajdodlarimizga, tariximizga va eng achinarlisi, o‘zimizga nisbatan ishonchsizlik paydo bo‘ldi.

NEMISLARNING AFANDISI

Nemis adabiyotida Baron Myunxauzen Nasriddin Afandining analogi hisoblanadi. Qator kino va multiplikatsion filmlardan yaxshi bilamizki, u zodagonlar qatlamiga mansub bo‘lgan. Uning hayoti va sarguzashtlari asosida tayyorlangan ssenariylarda sho‘rolardan farqli ravishda mulkiy tengsizlikka urg‘u berilmagan. U kambag‘allar vakili emas, harbiy, katta yer-mulk egasi sifatida namoyon bo‘ladi. Yoki zamonaviy inglizlarning haqiqiy Afandisiga aylanib ulgurgan Mister Binni olsak, u ham yo davlat agenti yoki yana boshqa vazifalarda ishlash asnosida o‘zining beo‘xshov xatti-harakatlari va kulgili sarguzashtlari orqali jamiyatdagi ayrim illatlarni fosh etadi.

XULOSA O‘RNIDA

Agar Afandi obrazining prototipi Nasriddin Xo‘ja ekanligiga ishonadigan bo‘lsak, uning sho‘rolar yaratgan filmlarda tasvirlanganidek kinodagidek ateist emas, balki Jaloliddin Rumiy, Hoji Bektosh Vali, Yunus Emro singari allomalar ta’limotini o‘ziga singdirgan tasavvuf tariqati vakili ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Shu ma’noda, Afandi timsolidan diniy va milliy qadriyatlarimizga bepisand qaraydigan sun’iy qahramon yasashga bo‘lgan urinishlar hech qanday mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi. Ustiga ustak, mazkur obraz vositasida o‘g‘rilik kabi illatlar oddiy holat sifatida tasvirlangani ham achinarlidir. Bunday talqin birovlarning molini o‘zlashtirib olish u yoqda tursin, o‘zganing narsasiga beruxsat qo‘l tekizishni-da ayb sanaydigan xalqimizning pokiza tabiatiga ham mos kelmaydi.

Bekzod ABDIRIMOV,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi
Xorazm viloyati bo‘limi rahbari

MUSAXO‘JA HAKIMOV – “KATTA TERROR” QURBONI

Boshlanishi 1-sahifada.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, prokuratura bo‘limi tashkil etilganidan so‘ng uch oy davomida bo‘limga 67 ta ariza kelib tushgan. BXSRning turli viloyatlarida, shuningdek, Eski Buxoro, Karki, Termiz shaharlarida prokuror, prokuror yordamchisi va kotib lavozimlari joriy etilgan. Shu bilan birga prokuratura organlari xodimlari sonini oshirish hamda ularning moddiy ta’minotini yaxshilash ishlari amalga oshirilgan.

Ayni vaqtda Adliya nozirligi tarafidan jazo o‘tash muassasalarining faoliyatini tartibga solish maqsadida 1923-yil 29-yanvarda “Jazo beruv sho‘basi” tashkil etilgan.

Unga rahbarlik qilish ham Musaxo‘ja Hakimovga topshirilgan. Bu sho‘baning asosiy vazifasi hibsxonada jazo muddatini o‘tayotgan mahbuslarning axloq ishlarini tuzatish va hibsxonalarning umumiy faoliyatini tekshirib, muntazam ravishda nazorat olib borish, qiynoqlarga chek qo‘yishdan iborat edi.

Sho‘ba rahbari bo‘lgan qahramonimiz tomonidan hibsdagi mahbuslarning ahvolini yaxshilash va ularni kasbga o‘rgatish, ish bilan ta’minlash kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. 1923-yil 18-mayda Buxorodagi mahbuslar uchun maxsus “Mashinado‘zlik” tikuv maktabi va uning qoshida alohida tikuv korxonasi tashkil qilingan. Unda mehnat qiluvchi mahbuslarga maxsus maosh tayinlangan. Korxonaga davlat buyurtmalaridan tashqari aholiga xizmat ko‘rsatishga ham ruxsat berilib, narxlar bozordagiga nisbatan 25 foiz arzon etib belgilangan.

Musaxo‘ja Hakimovning tashabbusi bilan Adliya nozirligi qoshida ilk bor mutaxassis kadrlarni tayyorlashga qaratilgan qisqa muddatli yuridik o‘quv kurslari tashkil etilgan. “Buxoro axbori” gazetasining 1923-yil may sonida butun buxorolik iqtidorli yoshlar e’tiboriga quyidagi e’lon taqdim etilgan:

“Buxoro xalq sho‘rolar jumhuriyatida yashaguvchi mehnatkash va dehqonlarg‘a e’lon

Xalq adliya nazorati e’lon qiladurkim, jumhuriyat uchun odil qozilar va sho‘roviy hakamlar yetishtirmoq maqsadi bilan Xalq adliya nazorati huzurida uch oylik kurslar ochiladur. Kursg‘a quyida ko‘rsatilgan kishilar taklif etiladur:

1) Saylov huquqiga molik odamlar. 2) Yaxshi savodlik, ham o‘zbekcha yaxshi bilganlar. 3) Siyosiy savodlik va hukumatga xayrixoh bo‘lganlar. 4) Kurslarda o‘qub qozi bo‘lushg‘a istagan har kishi nomusliq bo‘lmoq bilan barobar, istagan yerga qozi bo‘lish va el o‘rtasida hurmatlik bo‘lishi shart tutuladur.

Tanbih: 1) Kursga kirgan kishilar o‘qub chiqg‘andan keyin adliya nazorati ishida bir yil xizmat qilishga burchlidurlar. 2) O‘qub chiqg‘andan keyin adliya xizmatidan bosh tortg‘an kishilardan qonun bo‘yicha o‘qig‘on muddatda uning uchun sarf qiling‘on aqchalar talab etiladur. 3) Kursg‘a o‘qushg‘a kirgan odamlarning maishatlari hukumat tarafidan ta’min qilinadur.

Kurs uchinchi mayda ochiladur. Kursg‘a kirishni istagan kishilar xalq adliya nazoratining tashkilot sho‘basida o‘rtoq Qori Tojiga murojaat qilsunlar. Arizada quyidagi narsalar yozilg‘on bo‘lishi kerak:

1) O‘zining va otasining ismi; 2)Turg‘an joyi; 3) Yoshi; 4) Kasbi; 5) Qaysi ijtimoiy sinfdan ekanligi.”

Qozi oilasida voyaga yetgan, Jadidlik harakatining faol qatnashchisi, 24 yoshidayoq respublikaning prokuratura bo‘limiga rahbarlik qilib mamlakatda huquqni muhofaza qilish ishlarini mustahkamlanishiga katta hissa qo‘shgan Musaxo‘ja Hakimov sovet hukumatining tazyiqi va bosimi ostida Buxoro hukumatini “yot ijtimoiy unsurlardan tozalash”, uning tarkibini “proletarlashtirish” bahonasi bilan ko‘plab jadidlar qatori 1923-yil 23-iyunda lavozimidan ozod qilingan. Biroq u BXSR Xalq Nozirlar Kengashi raisi Fayzulla Xo‘jayevning talabi bilan hukumat tarkibida qoldirilib, uning shaxsiy kotibi vazifasida o‘z mehnat faoliyatini davom ettirgan.

Musaxo‘ja Hakimov O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazilganidan so‘ng hukumat tomonidan Buxoro shahar kengashining raisi lavozimiga tayinlangan. Biroq u 1925-yilda sovet hukumatining O‘zbekistondagi ulug‘ davlatchilik siyosatiga, milliy kadrlarga nisbatan bepisand munosabatiga befarq bo‘lmagan holda respublikada Fayzulla Xo‘jayev va Inomjon Xidiraliyev rahbarlik qilgan jadidlik harakatiga mansub bo‘lgan “18”lar guruhiga qo‘shilgan. Bu “qilmishi” uchun u 1926-yili sovetlar tomonidan ko‘plab milliy kadrlar qatorida partiya safidan chiqarilgan.

Oradan vaqt o‘tib, 1930-yildagina partiyaga qayta tiklangan. Musaxo‘ja Hakimov aynan shu yili Moskvadagi Kommunistik akademiyaga o‘qishga qabul qilinadi. U yerda 1933-yilga qadar tahsil ko‘rgan. Moskvadagi Millatlar ishi xalq komissarligi apparati xodimi, jadidlik harakati faoli Hoji Safo Jo‘raboyev bilan birgalikda Buxorodagi amirlik hukumatining ag‘darilishi va jadidlik harakatiga doir muzey yaratish masalasi bilan mashg‘ul bo‘lgan. Qahramonimiz 1933-yilda Toshkentga kelgach, dastlab Davlat reja qo‘mitasining raisi o‘rinbosari, so‘ng 1937-yilga qadar “O‘zbekbirlashuv” raisining o‘rinbosari lavozimida faoliyat olib boradi.

Sovet hokimiyati qatag‘on siyosatining eng yuqori cho‘qqisiga chiqqan “Katta terror” yillarida faol jadid Musaxo‘ja Hakimovga ham ko‘plab milliy rahbar kadrlar qatorida turli ayblovlar qo‘yiladi. U 1937-yil 4-avgustda NKVD xodimlari tomonidan Toshkent shahri, Xorazm ko‘chasi, 34-uyda hibsga olinadi.

1937-yil 13-avgustda NKVDning ichki qamoqxonasida Musaxo‘ja Hakimov tergovchilar tomonidan so‘roq qilingan. Tergovda u sovet hukumati tomonidan unga nisbatan qo‘yilayotgan ayblarni inkor qilgan.

Tergovchilar o‘zining razil maqsadiga erisholmagach, Musaxo‘ja Hakimovga qarshi turli bosim va tazyiqlar o‘tkaza boshlashadi. Uning 32 yoshli turmush o‘rtog‘i Shamsiya Hakimovani ham hibsga oladilar. Oqibatda qahramonimiz 1937-yil 25-oktyabrdagi tergovda o‘zini sovet qatag‘on organlari oldida “fosh qilish”ga majbur bo‘lgan:

– Hibsga olinganingizdan buyon uzoq vaqt davomida siz O‘zbekistondagi aksilinqilobiy millatchi tashkilotga a’zo bo‘lganingizni rad etib keldingiz. Endi ko‘rsatma berishga rozimisiz yoki iqror bo‘lmaslikda davom etasizmi?

– Men tergov oldida aybimni inkor qilish befoyda ekanligini tushunib yetdim va ochiqchasiga hamda boricha tergovga o‘zimning O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti raisi Fayzulla Xo‘jayev boshchiligidagi aksilinqilobiy millatchi tashkilotiga 1923-yildan to hibsga olingunimga qadar, ya’ni 1937-yil avgustgacha a’zo bo‘lganim haqida ko‘rsatma bermoqchiman...

Tergovchilar Musaxo‘ja Hakimovdan O‘zbekistondagi bir qancha xodimlar tomonidan sovet hukumatining adolatsiz qarorlariga qarshi tuzilgan “18”lar guruhi haqida so‘roqqa tortganda quyidagilarni ma’lum qilgan:

“Men bir faktni eslayman. “18”lar guruhi O‘zbekiston kompartiyasining 2-s’yezdida mag‘lub bo‘lgach, guruh a’zolarining bir qanchasi, xususan men ham partiya safidan chiqarildim. Men Fayzulla Xo‘jayevga o‘z ahvolimdan arz qilish uchun va yordam so‘rash uchun borganimda u menga quyidagilarni aytdi: “Bizning yo‘limiz bir qancha o‘rtoqlarimizning sustligi tufayli rad etildi. O‘zbekiston kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasi rahbariyatiga qarshi kurashni vaqtinchalik to‘xtatib turamiz va uni qayta boshlash uchun qulay fursat kutamiz”.

1938-yil 4-oktyabrda SSSR Oliy Sudi Harbiy Kollegiyasining ko‘chma majlisi o‘tkazilib unda Musaxo‘ja Hakimovga nisbatan O‘zSSR Jinoyat kodeksining 58, 63, 64, 67-moddalarida ko‘zda tutilgan ayblovlar qo‘yilib, otuvga hukm qilingan. Hukm o‘sha kuniyoq ijro etilgan.

Musaxo‘ja Hakimovning turmush o‘rtog‘i Shamsiya Hakimova 1939-yil fevralda hibsdan ozod qilingan. Ularning farzandlaridan 10 yoshli qizi Mahtab, 8 yoshli o‘g‘li Hakim, 3 yoshli qizi Ro‘zixon otasi vafotidan so‘ng uzoq vaqt aziyat chekkan. O‘sha qiyin davr haqida qahramonimizning qizi Mahtab Hakimova 1987-yilda O‘zSSR hukumatiga otasining nomini oqlash yuzasidan yozgan arizasida batafsil ma’lumot bergan:

“Toshkent shahri Kirov rayoni Mazuruk mahallasi 1-uyda yashovchi Usmonova (qizlik familiyasi Hakimova) Mahtab Musaxo‘jayevnadan

ARIZA

Mening otam – M.Hakimov 1901-yilda (aslida 1898 – R.Sh.) tug‘ilgan. VKP(b) a’zosi (afsuski, nechanchi yildanligi haqida bilmayman). 1937-yili qatag‘on davrida hibsga olingan va 1938-yilda bizga noma’lum bo‘lgan jazoni o‘tash joyida vafot etgan. Biz o‘sha vaqtda Toshkentdagi Xorazm ko‘chasida yashar edik. Onam – Shamsiya Hakimova ham NKVD xodimlari tomonidan hibsga olingandi. Meni, ukamni va singlimni “xalq dushmani” oilasi sifatida Turkiston shahridagi yetimxonaga berib yuborishdi. Bizning barcha mol-mulkimiz musodara qilindi. Uyimiz tortib olindi. Qisqasi oilamiz mutlaqo vayron bo‘ldi.

Tez orada urush boshlandi va biz yo‘qotishlardan iborat og‘ir hamda beshafqat hayot yo‘lini bosib o‘tdik. 1958-yil SSSR Oliy Sudi Harbiy Kollegiyasi otamning ishini qayta ko‘rib chiqdi va u jinoyat tarkibi aniqlanmagani tufayli reabilitatsiya qilindi.

Onam va ukam vafot etdi. Men yoshga doir nafaqaga chiqqan bo‘lsam ham butun umrim davomida mehnat qilib kelaman. Erim va uch nafar farzandim bor.

Otam o‘lganidan 50 yil o‘tganiga qaramasdan u qanday vafot etgani, qayerga ko‘milgani, qabri qayerdaligi, o‘lim oldidan aytgan so‘zlari va hokazolar haqida umuman bilmayman. Men hozirgacha otam haqida biron nima yozgani qo‘rqqanman.

Yurtimizdagi demokratlashuvdan foydalangan holda Sizdan otam qanday, qachon va qayerda vafot etgani haqida ma’lumot berishingizni, bizning oilaviy fotosuratlarimiz, otamning alohida suratlarini qaytarib berishingizni hamda tegishli tashkilotlar orqali otamning xotirasini abadiylashtirishga ko‘maklashishingizni so‘rayman.

7-noyabr 1987-yil”.

Jadid Musaxo‘ja Hakimov 40 yillik qisqa umri davomida adliya sohasi, xususan prokuratura idorasining tashkil topishi va rivojiga hissa qo‘shgan, mudhish qatag‘onga qadar turli idoralarda millat manfaatini ko‘zlab samarali faoliyat olib borgan shaxs edi.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
Azizbek MAHKAMOV,
Andijon davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyining xodimlari

XOTIRA AZIZ

QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Samidulla Qosimov – Namangan rayoni, Chust shahridan. Millati tojik. Kosiblik bilan shug‘ullangan. Uylangan, savodli, sudlanmagan. 1929-yilning ikkinchi yarmida Chust-Pop rayonidagi Nosirxonto‘raning yordamchi guruhi bilan aloqa qilgan. Koson yig‘ilishida ishtirok etgan. Koson shahriga hujum qilingan kunda qo‘zg‘olonchilarga qo‘shilgan. O‘zSSR JK 78-moddasi hamda RSFSR 59-3-moddalaridagi jinoyatlarni sodir etganlikda ayblangan.

Xolmirza Umirzoqov – Kosonsoy rayoni, Ko‘kumboy qishlog‘idan. Yer-suv islohotida mol-mulki musodara qilingan. Uylangan, kolxozga qarshi qo‘zg‘olonda ishtirok etgani uchun hibsga olingan.

Mulla Abdulla Masharipov – Kosonsoy rayoni, Ko‘kumboy qishlog‘idan. O‘zbek millatiga mansub. 1926-yilgacha madrasada o‘qigan. 1926-yildan 1930-yilgacha imomlik qilgan. Dehqonchilik bilan shug‘ullangan. O‘rtahol oiladan, uylangan, sudlanmagan.

Xudoynazar Umirzaqov – Kosonsoy rayoni, Ko‘kumboy qishlog‘idan. Uylangan, diniy maktabda o‘qigan. Ko‘kumboy qishlog‘ida kooperativ do‘kon mudiri bo‘lib ishlagan, sudlanmagan.

Abdug‘ani Sodiqboyev – Ko‘kumboy qishlog‘idan. Millati qirg‘iz. Uylangan, boy oiladan. Otasining xo‘jaligida ishlagan, sudlanmagan. Nosirxonto‘ra va Istambeklar bilan mustahkam aloqada bo‘lgan. Nosirxonto‘raning harbiy guruhi tomonidan amalga oshirilgan harakat rejasini tayyorlagan. Bir necha bor Nosirxonto‘ra va Istambekni uyiga yashirgan. Ularni oziq-ovqat bilan ta’minlagan. O‘zSSR JK 14-68-moddasi va RSFSR 17-58-moddasi, 17-59-moddalaridagi jinoyatlarni sodir etganlikda ayblangan.

Saidboy Otaboboyev – Namangan rayoni, Kulqo‘rg‘on qishlog‘idan. Millati o‘zbek. Dehqon, o‘rtahol oiladan. Savodli, ayoli tomonidan Eshon Dadaxon Nosirxonovga qarindosh bo‘lgan.

Nurmuhammad Usmanboboyev – Namangan rayoni, Kulqo‘rg‘on qishlog‘idan. O‘zbek millatiga mansub. Dehqonchilik bilan shug‘ullangan.

Isoqjon Aliboyev – Namangan shahridan. Millati o‘zbek. To‘quvchilik bilan shug‘ullangan. Madrasada o‘qigan, uylangan, sudlanmagan. Nosirxonto‘raning Janubiy Qirg‘izistonga qochishidan oldin undan saqlab turish uchun qurollar (bir dona uchotar vintovka, bitta berdanka, bir dona yapon karabini, bitta shashka, 200 jangovar patron va 300 rubl summadagi turli zayomlar obligatsiyalari)ni qabul qilib olgan. Nosirxonto‘ra, Eshon Dadaxon va Hasanxonni bir necha bor yashirgan. O‘zSSR JK 14-78-moddasi hamda RSFSR 17-59-moddasidagi jinoyatlarni sodir etganlikda ayblangan.

Dadaxo‘ja Oppoqxo‘jayev – Koson shahridan. Millati tojik. Uylangan, savodli, diniy maktabda o‘qigan, mayda savdogar.

Matibrohim Barotboyev – Koson shahridan. Tojik millatiga mansub. Uylangan, Nosirxonto‘raning shogirdi, mudarris, imom, sudlanmagan.

Mulla Abdulhay qori Dadaboyev – Koson shahridan. Millati tojik. Uylangan, diniy faoliyat bilan shug‘ullangan. Qori, sudlanmagan.

Imomxon Mo‘minxo‘jayev – Koson shahridan. Tojik millatiga mansub. Savodsiz, uylangan, kambag‘al dehqon, sudlanmagan.

Nuriddin qori Asadullayev – Koson shahridan. Millati tojik. Diniy maktabda o‘qigan, kolxoz a’zosi, sudlanmagan.

Barot Uzoqboyev – Koson shahridan. Millati tojik. Uylangan, savodsiz. “Rivojiya” ipakchi hunarmandchilik birlashmasi a’zosi, sudlanmagan.


Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonda).

HIKOYA

KELGUSINING QUYOSHI

ELBEK



Quyosh botdi. Uning yog‘dulari allanimani kutganday bo‘lib, biroz turdi-da so‘ngra yugurishib ketdilar. Quyoshdan qochib yotg‘on qorong‘iliq barcha yoqni o‘rab oldi. Ul achchiqlong‘on edi. Qovog‘ini solib, tegrasiga qarardi.

Atrofdagi shovqin-suronlar boshlandi. Qorong‘iliq askariga qarshi qo‘yilg‘on chirog‘lar yog‘dusi ko‘b tortisha olmasdan yengilishib, taslim bo‘ldilar. Kechaning tinig‘in yolg‘izg‘ina huvillab turg‘on shamol va unda-munda akillagan itlarning tovushlari buzardi. Kecha chindan-da qo‘rqinchli edi. Alamzadalarning ko‘ngillaridagi qorong‘iliq naq shul kechadan adashib qolg‘on parchalar edi. Har tomong‘a tartibsizcha uzinayib ketgan ko‘chalar, qorong‘iliqning oqaturg‘on ariqlari hukmini olg‘on edilar.

Tinch dengiz kabi oqib turg‘on bu qorong‘iliq dengizini og‘och yaproqlari shivirlab to‘lqinlatar edi. Tabiatning jimjitgina uyqusini buzg‘uchi xo‘rozlar hali tinchg‘ina yotardilar. Bularning tumshuqlari qanotlari ostidan olinmog‘on edi.

Turmushdan zorlang‘on darvishlar uchun bu hollar, bilmadim, qanday yoqishardilar? Lekin mening uchun bular boshqacha ta’sir berardi. Menga bu qorong‘iliqdan allanarsalar sezilardi. Unda yashiring‘on har narsa mening ko‘zimga ko‘rinardi...

Men shu topdan kechani kezish uchun bel bog‘ladim. O‘zimga eng yaqin yo‘ldosh o‘laroq bir tayoqni sayladim. Boshi berk, tor ko‘chalar, yurguvchilar uchun qiynoqlar. Bir ko‘cha qing‘ir-qiyshiq yo‘llardan ketib borardim. Eshiklarning tublarida quyruqlariga boshlarin qo‘yib yotquchi itlar uyqu aralash bir-ikki akillar edi-da so‘ngra yana “Hm-mmm” deb boshlarin qo‘yardilar. Yurib bormoqda bo‘lg‘on ko‘chalar mening uchun-da ko‘mak etmasdan kelgan yerimga qarab qaytarishlari aniq edi. Nechundir meni bir narsa o‘ziga tomon tortardi.

“Bir yo‘lg‘a kirgan kishi uchun eng yaxshi ish – shul yo‘lning nihoyatigacha borish!” dedim-da yana yurdim.

Ko‘p uzoq bormag‘on edim, bir eshik yorig‘idan yorug‘ chiqib turg‘anin ko‘rdim. Darrov esimga qorong‘iliqning zulmi tushdi. Unga qarab: “Qalay, shunchalik kuchansang-da buni o‘chirolmabsan-ku!” dedim. Qorong‘iliqdan tovush bo‘lmadi. Men eshik tomon yurdim, unga biroz qarab turdim. Kichkina bir uy, uning siniq oynali eshiklari ochiq, uydagi asboblar har tomong‘a sochiq edi. Uyning bir tomonig‘a o‘rin soling‘on. Bu o‘rin uch kishilik bo‘lsada, ikkisida kishi bor, biri bo‘sh edi.

Men uni ko‘rgach, uy ichiga yana diqqat bilan qaray boshladim. Chindanda o‘rin uch kishilik, lekin biri bo‘sh, yotqonlardan biri uxlamag‘on, ko‘zin bir tomong‘a tikib turar edi.

– Boyaqish, nimani o‘ylaydir, kimga va nimaga qaraydir? – dedimda ko‘zimni u qarag‘on tomong‘a qaratdim. Bir narsa ko‘ra olmadim.

O‘z-o‘zimga “Bu qanday hol? Qorong‘iliqda bo‘lg‘on narsalarni ko‘ra turg‘on ko‘zlarim nechun yorug‘liqda yaxshi ko‘ra olmaydirlar?” deb qo‘ydimda takror qaradim. Bu gal chiroq yaqinida qimirlamoqda bo‘lg‘an bir narsaga ko‘zim tushdi. Yana diqqat bilanroq qaradim. Ko‘rdim: yoshg‘ina bir bola, kichik o‘rindiqqa o‘lturib, kitob o‘qimoqda edi. Darhol dedim: “Yorug‘liq yorug‘liqg‘a qo‘shilg‘ach qanday ko‘rinsun?”

Bolaning yog‘du bilan to‘lmoqda bo‘lg‘on gavdasi chetdan qarag‘uchilar uchun chiroqdan ajratib bo‘lmaydurg‘on darajada edi.

Bu vaqt men bir tomong‘a termilib yotg‘on kimsaning-da kelgusining quyoshi bo‘lishg‘a tayyorlanmoq-da bo‘lg‘on bolaning onasi ekanligin angladim.

“Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali (1925-yil, 9-10-son)dan Xoliyor SAFAROV tabdili.

HAJV

TINCH QULOG‘IM...

Nega ko‘rinmay qolding, deysanmi, oshna?

Shu desang, birrov AQShga o‘tib keldim. Kalla bormi senda?! AYOQShmas, AQSh deyappan! AYOQShga borgani benzin quyishga tirillog‘im bo‘lmasa...

Amerikani aytyapman. Qanaqqip deysanmi? Shunaqqip!

Oqilboyni bilasan, turib-turib bitta savol tashlaydi-da, “Kim topsa yuz dollar” deb qo‘yadi. Qo‘yliq bozoriga qulpinayning “Viktoriya” so‘rti endi chiqqan, xotin xumorbostiga shu o‘lgurdan to‘rt donagina obering, deb mazgini kampot qibturgan payt edi. Nima deysan? “Boshqorong‘i?” Jinni-pinnimasmisan? Bu yog‘da kenjatoyim Akbarali ko‘chadan o‘tgan qiz-juvonni ko‘zi bilan chorrahagacha kuzatib qo‘yadigan chamaga yetdi-yu, uyatmasmi?

Xullas, baxtimga Oqilboy mahalla boshidagi guzarda ulfatlari bilan gurunglashib o‘tirganakan. Xuddi meni yoniga chorlaganday, bir qalqinib “hozir” deb qo‘ydim-da, xotinni yonidan sirg‘alib qochdim. Xotin sho‘rlik labini “Viktoriya” po‘rma juplaganicha qolaverdi...

Boy men bilan qosh sakratib salomlashgan bo‘ldi-yu, hamtovoqlariga qarata: “Maykl Jekson nima sababdan o‘lgan?” deb savol tashlab qoldi. To‘g‘ri javob berganni Jeksonning yurtiga oborib o‘ynatib kelishini qistirib, “Agar aldasam, narxim Yangiobod baraxo‘lkasida uch tiyin bo‘lsin!” deb qasam ichvordi.

To‘dadagi turqi bir-biridan sovuq nusxalarni biri “Zahm – so‘zakdan o‘lgan!” desa, boshqa “husni Yusuf” esa: “Kreditini yopolmay, o‘zini gitarani simiga osgan!” deb xiringladi. Qolganlarni javobiyam poyma-poy, chalakam-chatti bo‘ldi. Gal menga kelganida Oqilboy iyak qoqar-qoqmas, o‘ylab ham o‘tirmay “Ajali yetgani uchun o‘lgan” devoribman.

“E, malades! Mujik ekansan, sho‘tta bilindi”, deb boy yelkamga yelka urib, tan berganini anglatdi. Xullas, sho‘piri uyga borib pasportimni oldi-yu men bu voqeani unutdim. Rosti, ishonqiramay, umid qilmay dalshe yashayverdim...

Omalekin, Oqilboy “Oqilboy” deganicha bor ekan. Juma bozoridan yarim kilogina shudring bodring olib qaytyotsam, o‘sha guzarda o‘sha sho‘pir tandirga kirib chiqqan qo‘chqorkalladay majbur tirjayib turibdi. “Moro bo‘sin, mullaka”, deydi. “Amriqoga ketyapsiz! Mana, viza”, deydi. Birdan g‘am-tashvish bo‘ynimga arqondek o‘raldi-yu...

“O‘sha-a-aqqa borib-kelish oson gapmi? Chiqimiyam o‘shancha bordir? O‘zim nosqovoqqa non bormi, deb Chorsuga bazo‘r peshkom boribkelayotgan tiriktovon bo‘lsam...”


Maktabda qanaqa o‘qiganimni o‘zing bilasan, oshna. Chet tilidan Ahmet tatar degan garmonchi darsga kirardi. Seni esingda bormi-yo‘qmi, lekin men qaysi tildan dars berganini o‘lay agar eslolmayman. Urush kinolarda miyaga o‘rnashgan “Hende xo‘x! Gitler kaput!” deganlari nemischa emish... Bu yog‘i safarga to‘rt kun qolgan. Baxtimga katta nevaram Sarvaraxon ingliz tili o‘qituvchisidan o‘rgangan uch-to‘rtta zaril so‘zni menga ham yodlatdi: “Vat iz yo neym? Yu spik inglish? May neym iz Mulla. Bay-bay...”

Yo‘q, boy gapida turdi. Menga bir sent rasxo‘t qildirmay, hammasini o‘zi to‘lab olib ketdi. Qiladigan ishim: uni ikkita sepsandiqday jomadonini sudrash xolos. Amriqo deganing yerni quyrug‘ida ekan. Naqd o‘n ikki soat “Bo‘ying”da uchippiz. Oyoqlar akashak bo‘b qoldi. Omalekin, bo‘yingdan akang, samalyotni girgitton qizlari juda mehmonnavoz ekan. To‘xtovsiz goh qizilidan, goh oqidan quyadi... Bir osh obkesa, bir norin tutadi. Shashlikni osmonda qanaqqip pishirdiykan, deb ancha boshim qotdi.

“Taassurotlar?” xuddi “Millar”ni muxbiriga o‘xshab savol tiqishtirasan-a, tavba! Oshna, birinchidan, menga yoqqani yo‘llarning kengligi bo‘ldi. Ikkinchidan, birorta olatayoq yo kamera ko‘rmaysan. Tezlikni cheklash o‘rniga “gazni bos, to‘qson mildan kam yurma”, degan ogohlantirishlar hammayog‘da. Eshitganga yolg‘on, ko‘rganga chin: binolari “Toshkent siti”danam bir-ikki quloch baland, do‘llar zavodlari shaqara-shuqur ishlab yotipti. Ko‘cha to‘la sirg‘a, baldoq taqqan “sherimard”lar. Soqolini uy telefonini simiga o‘xshatib shokila qilgan qoramag‘iz yigitlar ko‘zi qizarib, rangi bo‘zarib yuripti.

Oqilboy nima ish bilan borgan ekan, deysanmi? Qaydan bilay? So‘pi gimnastika qilmasidan mehmonxonadan chiqib ketadi. Yarim kechasi totos boladay talpanglab keladi. Savol berib mazza qimiysan.

Amerikaliklarni bir udumiga hayron qoldim. Faqat nonushta qilisharkan



xolos. Tushlik, kechki ovqat yo‘q. Ertalab mehmonxona yemakxonasiga tushaman. Boy tayinlaganday yettidan to‘qqizgacha, naqd ikki soat tinmay yeyman. Birov “g‘iring” demaydi. Har zamonda hazmi taom qilib stollarni aylanib yugurib ham qo‘yaman. Chiqishda ikkita bananmi, bodringmi, ishqilib, qo‘lga ilashgan narsani cho‘ntakka uraman. Eshik og‘asi o‘rnida turgan eshik opasi – nihoyatda to‘lin ayol o‘tsam ham, ketsam ham yasama tirjayib, “Hay, mister” deb qo‘yadi. Meni birorta kino yulduzigami yo senator-penatorga o‘xshatdimi, bilmayman. Menam bo‘sh kelmay “Vat iz yo neym? Yu spik inglish?” degancha shoshib o‘tib ketaman. Yana savolga tutib qolsa, sharmanda bo‘b qolmay, degan xayol ham yo‘qmas.

Maqtanishmas-u, umrimda bunaqa dam olgan emasman. Ishim televizoda futbol ko‘rish-u uxlash. Omalekin bizni kanallarni birortasiyam ko‘rsatmaskan u yoqda. “Qizim” serialini nafas olmay ko‘ryotuvdim. Nima bo‘ldiykin, qiz raddomga kirib ketuvdi. Eson-omon qutulib oldimikin? Telefon qilib xotindan so‘ray desam, “Chetga chiqib darrov sog‘inib, gaplashgani serialni bahona qilyapti”, deb o‘ylamasin deb o‘zimni tiydim. Bo‘sh paytdan va tekin issiq suv, suyuq sovundan foydalanib qolay, deb kuniga to‘rt martagacha cho‘milaman. Uyga kelganimda xotinim ham g‘alatiroq qilib, “O‘zgaribsiz-a, dadasi” deb qo‘ydi. Chetga chiqqan odam, dunyo ko‘rgan banda o‘zgarmasinmi? O‘zgaradi-da.

Xullas, oshna, birim – ikki, juft jomadonim to‘rt bo‘lib qaytdik. “Bo‘ying”da u yonimda uchta, bu yonimda uchta deport bo‘gan o‘zimizning qorako‘zlar. Chap biqinimda o‘tirgan qiltiriqdan hol-ahvol so‘rasam, yelkamga peshana tirab hiqillab bersa bo‘ladimi? Bu sho‘rpeshana arzandasini cho‘choqkesdi to‘yiga kattaroq xarj qilib, qulog‘igacha qarzga botib, sudxo‘rlar zug‘umidan bezib, eski “Neksiya”sini sotadi-yu, Meksika orqali Amerikaga o‘tmoqchi bo‘ladi. Chegaragacha yetaklab borgan “gid”, oxirgi chaqasiniyam qoqib olib, Ozodlik haykali tomonga ishora qilib, oq yo‘l tilavoradi.

Chegaradan it o‘rmalash qilib borayotgan to‘ychivoy tikka politsani tizzasiga bosh urib borganini bilmay qoladi. Ko‘pni ko‘rgan politsachi “Xush kepsiz, opoqbola” deb tikalay yerto‘laga uloqtiradi. “Shu bo‘yi yetim qo‘ziday mo‘ltirab, yo‘qlov-oqlovsiz olti oy nam tortib yotdim. Yemishim – qaynatilgan loviya, ichmishim qaynamagan suv bo‘ldi”, deb ko‘zini siydigini oqizvordi.

Narigi badarg‘a yigit esa dang‘illama uchaska solaman, deb xotinini nomiga otni kallasidek kredit olib, to‘loviga kelganida beli chiqadi. Qistovlardan zada bo‘lgan xotin er jonivorni ko‘chaga haydaydi. Najot okean ortida, degan cho‘pchaklarga laqqa tushgan “boyvachcha” amallab viza to‘g‘rilab, Chikagoda qo‘nim topadi. Chikagoni bilasan-u, oshna. Naq Al Kaponeni mahallasi bo‘ladi. Kinoda ko‘rgandirsan? To‘g‘ri, o‘zi o‘lib ketgan. Lekin taomili o‘sha-o‘sha. Xullas, yigit kirakashlik qilmoqchi bo‘ladi. Arendaga moshin olib, o‘sha kuniyoq muyilishda “Lambarjini Sian”ni orqasidan yetvoladi. “Lambarji”ni qancha turishini bilasanmi? Ha, oltita noli bor.

Qisqasi, yurtida kreditni to‘lolmagan yigit, “sehrli diyor”da ham qarzga kirib qoladi-yu eng ma’qul yechim – qochib qutulish ekanligini darrov tushunadi. “Yaxshiyam, kirakashlik boshqa birovning nomiga rasmiylashtirilganiydi. Bo‘masa, do‘zaxga pattamni tutqazishardi”, deydi olazarak ko‘z o‘ynatib.

Agar Oqilboy jomadonga allaqanday shubhali tovarlarni tiqqani-yu, ularni meni nomimga yozdirgani, bojxona ko‘rigida ozgina boshog‘rig‘i bo‘lganini aytmasa, safardan uyimga xushnud qaytdim.

Yaxshiyam birovdan qarzim yo‘q. Yaxshiyam bo‘ynimga kredit osilmagan. Yaxshiyam menda to‘y, hovli, hashamat vasvasasi yo‘q.

“Och qornim – tinch qulog‘im. O‘z uying – o‘lan to‘shaging”, deysanmi, oshna? To‘g‘ri. Omalekin keyingi safar Oqilboy tilla sochsayam, yo‘rig‘iga yurmayman. Oshna, uydagilarni so‘rab qo‘y, hay? Bay-bay!

Mulla XUNOB

Husan SODIQOV chizgan rasm.

TARMOQLARDA NIMA GAP?



Mashina yuvish uchun “avto moyka”lar juda urf bo‘ldi.

Ularda, odatda, faol kimyoviy vositalar ishlatiladi. Ushbu vositalar tarkibida, umumiy olinsa, anionli va kationli sirt faol moddalar (SFM), ETDA tuzlari, natriy ishqori va turli bo‘yoqlar mavjud. Asosiy moddalari anionli SMF hisoblanadi. Ayrim manbalarga ko‘ra 15 foizgacha shunday birikmalar qo‘shiladi.

“MOYKA” MUAMMOSI

Anionli SFM kimyoviy jihatdan o‘ta faol hisoblanadi. Qiyin eruvchan yog‘larni ham eritadi.

“Moyka”ga boradiganlar sezgan, lekin e’tibor bermagan bir narsa: faol kimyoviy vosita sepayotganingizda nafas olishingiz qiyinlashadi. Bu anionli SFMning ta’siridir. Bu moddalar gipoksiya – nafas olishni qiyinlashtiradi. Tez-tez mashina yuvadiganlar bora-bora to‘liq nafas olishga qiynaladi.

Yuqoridagi vositalar allergiya chaqiradi. Buyrak va jigar kabi muhim a’zolarga ta’sir etadi.

“Moyka”dan chiqqan suv qayoqqa ketadi? Uning nazorati bormi? Bu savolga men javob bera olmayman.

Hozir “moyka”lar nafaqat shaharlarda, balki tuman va qishloqlarda ham ko‘paymoqda. Bu joylarda oqar suvlar “moyka”larning “faol kimyo”sidan himoyalangan emas. Har kuni tonna-tonna zaharli oqava oqiziladi, qayoqqa oqayotgani, tabiiy manbalar – ekotizimga ta’siri ilmiy tahlil etilgan emas.

“Moyka”lardagi kimyoviy vositalarga qanday asosda ruxsat berilgan, bilmayman.

“Tuproqlarimiz zaharlangan” deb sobiq Ittifoqni qoralaymiz, yomonlaymiz, lekin hozirgi bu ishimizga qanday baho beramiz?

Men “moyka”larga qarshi emasman, lekin kimyoviy vositlarni cheklash kerak! Bu vositalardan hech kim himoyalangan emas. Sababini yuqorida keltirdim: uning oqavasi baribir aylanib-aylanib ichimlik suviga qo‘shiladi! Oqava suv bug‘lanib havoga singib ketishi mumkin, lekin uning tarkibidagi hamma modda tuproqda qoladi. Boshqa suv manbasi baribir uni “topib” oladi.

Balki bizda hali maishiy kimyoviy vositalar haqida qonunchilik yo‘qdir. Agar bo‘lmasa, qonunchiligini ishlab chiqish vaqti yetgan.

Onkologik kasalliklar ko‘payib ketganini ko‘p gapiramiz. Unutmaslik kerakki, bu kasallikning eng asosiy manbasi – maishiy kimyoviy vositalar! “Moyka”ning moddalari, oshxonangizdagi idish yuvish vositalari!

Umid qilamanki, fikrim mutasaddilarga yetib boradi va masala ijobiy yechim topadi.

Baxtiyor ABDUG‘AFUR,
Feysbuk

TILBILIM

“OTLANDI” VA “QUSHLANDI”



Avvalroq o‘zbek tilida qishloq so‘zi bormi, demak, mantiqqa ko‘ra, bu tilda qishlashning ziddi bo‘lgan, to‘g‘rirog‘i egizagi bo‘lgan yozloq so‘zi ham bo‘lishi kerak degan fikrda yaylov va chayla so‘zlari xususida mulohaza yuritgan edim.

Bu mavzumiz ham shunga mosroq. Tilimizda yo‘lga tushish otlandi so‘zi bilan ifodalanadi. Otdami, avtomobildami, poyezddami, baribir, yo‘lga tushdingizmi, otlangan bo‘lasiz. Qadimgi tilimizda qanotlanish, uchishga shaylikni bildirgan qushlandi degan so‘z bo‘lgan. Endi u zamonlarda samolyot yo deltaplanlar bo‘lmagani uchun odamlar uchishni orzu qilganlar, tushida ko‘rganlar, qanotli bo‘lishni istaganlar. Lekin bandasining yelkasidan qanot o‘sib chiqishi buyurilmagan.

Mahmud Koshg‘ariy izohiga ko‘ra, *qushlandi* so‘zi “qanotlandi” ma’nosi barobarida odam “bir oti ustiga ikkinchi otni oldi, ikki otli bo‘ldi” degan ma’noni ham anglatgan. Ya’ni, ikki oti bor odamning ikki qanoti bo‘ladi. Bunday odamga nisbatan *Ər qushlandï* deyilgan. Yana bobomiz qanotlandi degan so‘zni ham ishlatgan. *Ər qanotlandï* iborasi “odam uchar otli bo‘ldi va unda uchdi yoki tilagiga yetdi” degan mazmunda kelgan.

Otlandi so‘zida ham, qushlandi so‘zida ham she’riy ruh bor.

Eshqobil SHUKUR

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Mas’ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Dilmurod Do‘stbekov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 5 867
Lotin yozuvidagi adadi – 11 914
Media kuzatuvchilar – 19 021
Buyurtma: G – 940.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:50
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz